

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI.
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI.

«Himoyaga ruxsat»
“AVT” kafedra mudiri
_____Muxamadiyev
«___» _____ 2015 yil.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Suv hayot man’bai” mavzusida videolavha yaratish.

Bitiruvchi	_____	<u>Umaraliyev SH. U.</u>
	(imzo)	(F.I.SH)
Rahbar	_____	<u>Beknazarova S. S.</u>
	(imzo)	(F.I.SH)
Taqrizchi	_____	<u>To’xtasinov M.</u>
	(imzo)	(F.I.SH)
HFX bo’yicha maslahatchi	_____	_____
	(imzo)	(F.I.SH)

Toshkent 2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI.
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet: Televizion texnologiyalar, kafedra: "Audio va video texnologiyalari"
Yo'nalishi (mutaxassislik) shifri va nomi: 5320600- "Audio va video
texnologiyalari"

«TASDIQLAYMAN»
Kafedra mudiri Muxamadiyev A.
«_____» _____ 2015 y.

Bitiruv malakaviy ishi uchun
TOPSHIRIQ
Umaraliyev Sherzod Umarali o'g'li

(talabaning familiyasi, ismi, sharifi)

1. Ish mavzusi: "Suv hayot man'bai" mavzusida video lavha yaratish.
2. «19» 01. 2015 y. B №60-18-sonli_buyrug'i bilan universitet bo'yicha tasdiqlangan
3. Yakunlangan ishni topshirish muddati: 01.06.15 y.
4. Ishga kerakli ma'lumotlar: "Tasvirga olish texnikasi va zamonaviy montaj tizimlari."
5. Ilmiy ijodiy ish mazmuni (ishlanmaga tegishli savollar): Kirish qismi, montaj jarayonining rivojlanish tarixi, "Suv hayot man'bai" mavzusida videolavha yaratish, foydalanilgan texnik qurilmalar, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar.
6. Grafik ma'lumotlar ketma-ketligi: diplom projektining slaydlari, yaratilgan videolavha.
7. Topshiriq berilgan sana: 20.01.15 y.

Rahbar

Beknazarova S.S.

(F.I.SH.)

(imzo)

Topshiriqni qabul qildim

Umaraliyev SH.U.

(F.I.SH.)

(imzo)

8. BMI alohida bo'limlari bo'yicha maslahat.

№	Bo'lim	Rahbarning F.I.SH	Imzo, sana	
			Topshiriq berdim	Topshiriq oldim
1	Kirish	Beknazarova S.S.	20.01.15	20.01.15
2	Montaj jarayonining rivojlanish tarixi	Beknazarova S.S.	05.02.15	05.02.15
3	Videolavha tayyorlash texnologiyasi	Beknazarova S.S.	11.03.15	11.03.15
4	“Suv hayot man’bai” mavzusida videolavha yaratish	Beknazarova S.S.	13.04.15	13.05.15
5	HFX		18.05.15	18.05.15
6	Xulosa	Beknazarova S.S.	26.05.15	26.05.15

9. Ishni bajarish grafigi.

№	Ish bo'limining nomi	Bajarish muddati	Bajarilishi to'g'risida rahbar tasdig'i (imzo)
1	Kirish	20.01.15-04.02.15	
2	Montaj jarayonining rivojlanish tarixi	05.02.15-10.03.15	
3	Videolavha tayyorlash texnologiyasi	11.03.15-11.04.15	
4	“Suv hayot man’bai” mavzusida videolavha yaratish	13.04.15-16.05.15	
5	HFX	18.05.15-23.05.15	
6	Xulosa	26.05.15-01.06.15	

Bitiruvchi

(imzo)

«_____» _____ 2015 y.

Rahbar

(imzo)

«_____» _____ 2015 y.

Ushbu bitiruv malakaviy “Suv hayot man’bai” mavzusida video lavha yaratish jarayonlarini yoritishga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida hozirgi vaqtda tasvirga olish texnikasi va montaj qilishda foydalanuvchi zamonaviy dasturiy ta'minot Adobe Premiere Pro dasturiy vositalari o'rganilgan va ular asosida “Suv hayot man’bai” mavzusida videolavha yaratish

Данная выпускная квалификационная работа посвящена процессу съемки и монтажа сюжета о «Вода- источник жизни».

При выполнении выпускной квалификационной работы были проведены съемки коллежа и смонтирован сюжет на современной программе нелинейного монтажа Adobe Premiere Pro. На основе этих программных средств подготовлен сюжет о «Вода- источник жизни».

This Graduate work creation video on the theme “Water is the source of life” When execution of the final qualifying work was carried out survey of college and edit to modern non-linear editing program Adobe Premiere Pro. On the basis of these software tools developed film about “Water is the source of life”

Mundarija:

KIRISH	6
I BOB. MONTAJ QILISH TARIXI.....	12
1.1. Montaj jarayonining rivojlanishi tarixi.....	12
1.2. Montaj jarayonining asosiy qoidalari.....	19
1.3. I bob bo'yicha xulosa.....	23
II BOB. VIDEO RESURSLARNI TAHRIRLASH TEXNOLOGIYASI.....	24
2.1.Montaj tizimlari.....	24
2.2.Chiziqli va nochiziqli montaj tizimlari.....	30
2.3. Adobe Premiere Pro dasturida videolavha tayyorlash texnologiyasi.....	33
2.4. II bob bo'yicha xulosa.....	36
III BOB. “SUV HAYOT MAN’BAI” MAVZUSIDA VIDEOLAVHA YARATISH.....	37
3.1.Foydalanilgan texnik uskuna va qurilmalar.....	37
3.2.“Suv hayot man’bai” mavzusidagi lavhani montaj qilish.....	42
3.3. III bob bo'yicha xulosa.....	57
IV BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH.....	58
3.4. Favqulotta vaziyatlar.....	58
3.5. Atmosfera havosini changdan tozalash usullari.....	62
XULOSA.....	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	69

KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzuidagi ma'ruzasi, xususan «Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash» bo'yicha belgilab bergan strategik vazifalari ommaviy axborot vositalari uchun yana muhim davrni boshlab berdi. Ommaviy Axborot Vositalari (OAV) shuningdek, televideniyaning rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy iqtisodiy tizimning barcha sohalarida bir qator qaror va farmonlar asosida bu tizim rivojlantirila boshlandi. Bu sohalarning rivojlanishi esa mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmasdan qolgani yo'q. Har bir soha o'z doirasi asosida mamlakatimiz rivojlanishining yangi yo'llarini ishlab chiqmoqda. Jumladan, televideniya olib borilayotgan islohotlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda asosiy sektorlardan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan bir qator Farmon va Qarorlari Respublikamiz ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 17 apreldagi PQ-1741-son Qarori 2017 yilgacha davr uchun O'zbekiston Respublikasida raqamli teleradioeshittirishni joriy qilish bo'yicha qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonunlar qabul qilindi:

- «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonun (2007 yil 15 yanvar);
- «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi Qonun (1997 yil 24 aprel);
- «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun (1997 yil 24 aprel);
- «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonun (2002 yil 12 dekabr);
- «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun (1996 yil 30 avgust);
- «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonun (2006 yil 20 iyul);

- «Reklama to'g'risida»gi Qonun (1998 yil 25 dekabr);
- «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonun (1993 yil 7 may);

Mustaqillik yillarida yaratilgan keng sharoitlar tufayli ommaviy axborot vositalarimizning soni bugungi kunda 1392 tani (01.01.2015 yil holatiga) tashkil etadi. Bular 689 ta gazeta, 283 ta jurnal va 100 ta TV va radiolardir.

Bugun respublikada nodavlat OAV tez rivojlanmoqda. Telekanal, radiokanallardan tashqari veb-saytlar ham OAV sifatida ro'yxatdan o'tkazilmoqda. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 304 ta veb-sayt ro'yxatdan o'tkazildi. Tele- va radio kanallar hamda veb-saytlarning 79 foizi nodavlat ommaviy axborot vositasidir.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari huquqiy bazasini yaratilishida Respublikamiz Konstitutsiyasiga asosiy manba sifatida tayanildi. Konstitutsiyamizning 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi» deb belgilab qo'yilgani ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi.

Ushbu qoidaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. E'lon qilinayotgan xabar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q» deb ko'rsatib qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 oktabrdagi 214-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom» asosida olib boriladi.

Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashayotgan millatlarning 7 ta tilida va siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, sport kabi 20 dan ortiq ixtisosliklarda faoliyat olib boradi. Bunday salmoqli o'zgarishlar sohada qonunchilik mexanizmini yanada takomillashtirish, ularning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligini taqozo etmoqda. 2010 yil 12 noyabrdagi Oliy

Majlis palatalarining navbatdagi qo'shma yig'ilishida Prezidentimiz «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da yana axborot sohasiga alohida to'xtalib o'tganlari diqqatga sazovordir. Mazkur Konsepsiyada axborot sohasiga daxldor «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi va «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bilan birga «Telekommunikasiyalar to'g'risida»gi qonunni takomillashtirish hamda «Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida»gi, «Davlat hokimiyati boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi va «Teleradioeshittirishlar to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilish taklifi kiritildi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Mamlakatimizdagi barcha sohalarda rivojlanishning yangi yuqori bosqichiga kutarilishga erishildi. Shu borada zamonaviy komputer texnologiyasi va texnik qurilma va uskunalarining ommaviy axborot vositalari va televideniya tadbiri yanada kengayib bormoqda. Mamlakatimiz boshqa rivojlangan mamlakatlar singari televideniyaning yangi bosqichga ko'tarishga intilmoqda va bu borada faol harakatlar va islohotlar olib bormoqda. Mamlakatimizning uzoq muddatga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategik rejasi zamonaviy raqamli televideniyaning butun mamlakat bo'ylab tadbiq etish va jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining yangi va tezkor texnologiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va amalga oshirishga yo'naltirilgan. Bu strategik reja mamlakatimizni butun dunyo raqamli televideniya va axborot almashuv sohasining talablariga yuz foiz javob beradigan yangi televideniya texnologiyalarini va teleko'rsatuvlarni tayyorlashga imkon yaratdi.

Ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. Istiqloлга erishganimizdan so'ng, birinchi navbatda sohaning huquqiy bazasiga e'tibor qaratildi va rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish boshlandi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari bu

Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklarasiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normalardir.

Bugungu kunda mamalakatimizda ommaviy axborot vositalari va television texnologiyalarning rivojlanishi va takomillashuvi natijasidagi afzalliklarni inobatga olgan holda uni joriy etish jarayoni kengaymoqda. Ommaviy Axborot Vositalari (OAV) va television texnologiyalarning ta'siri insonlar hayot tarsi va madaniyatidan tortib davlat tuzilmalari va fuqorolik jamiyati institutlarini, ijtimoiy va iqtisodiy sohani, fan va ta'limni qamroq olmoqda. Ular insonlarga o'zlarining imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish zamini yaratish bilan birga axborot amashinuv jarayonining yuksalishi, jahon yangiliklaridan xabardor bo'lish shu bilan birga yoshlarning ongiga ra'sir qiluvchi har xil yod g'oyalarni oldini olish, xalqning tinchlik va osoyishtaligini mustahkamlash hattoki iqtisodiy sohani rivojlantirish kabi maqsadlarga erishishga xizmat qilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) va television tizimni shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalari, komputer texnikasi va zamonaviy television uskuna va jihozlar jamiyat hayoti va iqtisodiyotning barcha jabhalariga joriy etish va undan unumli foydalanish, fuqorolarni jahonda sodir bo'layotgan voqea va hodisalardan bir zumda boxabar bo'lish, jahon talablariga javob beradigan televideniyaning shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va dunyo axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 17 apreldagi PQ-1741-son Qarori 2017 yilgacha davr uchun O'zbekiston Respublikasida raqamli teleeshittirishni joriy qilish bo'yicha vazifalar kompleksini 2 bosqichda bajarishga qaratilgan faoliyati o'z vaqtida qo'yilgan maqsadlardan biri bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Hozirgi kunda yaratilayotgan teleko'rsatuvlar yoshlar ongi, shu bilan bir qatorda fuqorolarning ommaviy madaniyati, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lish, ekologik va global muaommolar, dunyodagi siyosiy vaziyat, mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida ma'lumotlar bermoqda. Bizga ma'lumki televideniya orqali namoyish etilgan ko'rsatilgan insonlar dunyoqarashi va ongiga ta'sir ko'rsatuvchi munim omil hisoblanadi. Shu sababdan ham yaratilayotgan har bir ko'rsatuv yoki videolavha mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotini yukasalishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Ushbu bitiruv malakaviy ishida dunyodagi ekologik muammolardan biri bo'lgan ichimlik suvi haqida videolavha yaratish va uni jahon standartlariga javob beradigan mazmunda tayyorlash va zamonaviy montaj dasturlaridan biri bo'lgan Adobe Premiere Pro imkoniyatlaridan foydalanish asosiy maqsad hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida televideniya sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari yoritilgan. Bu bitiruv malakaviy ishi teleko'rsatuvlar qay tarzda va qanday mazmunda tayyorlanishi va shu bilan birga o'quv jarayonini tugatoyotgan yosh kadrlarni o'z sohalari bo'yicha ishlaydigan korxona va tashkilotlarda faoliyat borishini mustahkamlash va ularni videolavha va teleko'rsatuv tayyorlashda yetarlicha mahoratga ega bo'lishini taminlab berish uning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari mamlakatimizning ustuvor yo'nalishlariga kiritilgan Ommaviy Axborot Vositalari (OAV) va television tizimi, axborot almashish vositalari, online TV dan foydalanishni rivojlantirish va modernizatsiyalashtirishni tashkil etish. Meyoriy hujjatlarda belgilab berilgan tadbirlarni amalga oshirilishi television tizimlar, resurslarni yaratishni, jamiyatimizning har bir a'zosi hayotiga television tizimlarni joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratishni va jahon OAV bilan raqabatbardoshlilikini ta'minlaydi. Ushbu muhim qarorlarni qabul qilinishiga jamiyat va Ommaviy Axborot Vositalarining (OAV) turli sohalarida tezkorlik bilan dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni ommaga taqdim etishiga, fuqorolar asosan yoshlarning ongida go'yaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun

qo'yiladigan talab, ta'lim jarayonlari va insonlarning kundalik hayotini yoritish va ularni yangiliklardan xabardor bo'lish zarurati hamda axborot va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash talabi asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatni demokratik yangilanish va modernizatsiyalash, ochiq fuqorolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirishda mustaqil ommaviy axborot vositalarini, eng avvalo, alohida ahamiyatga ega bo'lgan teleradieshittirish va teleko'rsatuvlar faoliyatini rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohatlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- Montaj jarayoni tarixi va uning qonun qoidalari;
- Adobe Premiere Pro videomontaj dasturi imkoniyatlarini yoritib berish;
- Adobe Premiere Pro videomontaj dasturi asosida videolavha yaratish;

I BOB. MONTAJ QILISH TARIXI.

1.1. Montaj jarayoning rivojlanish tarixi.

Montaj tarixining rivojlanishiga qaraydigan bo'lsak u anchagina jiddiy tus olgan va aytib berishga arziydi. Montajning rivojlanishiga asos solgan kinematograflardan birinchisi bu L. Kuleshov hisoblanadi. Montaj jarayonining rivojlanishi esa 1917 yilga borib taqaladi. Kuleshov "Video tayyorlash uchun rejissor mayda mayda bo'laklardan iborat, betartib va bir biriga bog'liq bo'lmagan tasvirlarni yoki kadrlarni bir vaqtning o'zida ham samarali ham ishonchli va ham ritm asosida tartiblay bilishi kerak. Bu xuddi yosh bolalar alohida alohida harflarni birlashtirib ularni talaffuz qilgan holda so'z yoki jumla hosil qilganga o'xshaydi" deb aytgan. Bu chuqur ma'noli iborada amaliy jihatdan montajni nima ekanligi aytib o'tilgan. Bir necha yillardan keyin taxminan 1918-1919 yillarda L. Kuleshov xrestomatik tarifga ega bo'lgan ikkita asosiy funksiyali kino montaji eksprementlarini yaratdi. Uning bu eksprementlari montajning nima ekanligi va uning tarixini o'zida aks ettiradi. Keyinchalik bu eksprementlar juda mashhur bo'lib ketadi. Bu eksprementlarda montajni suratga olish jarayonining o'zidayoq va kadrlarni qo'shish jarayonida amalga oshirilgani yoritilgan.

Birinchi eksprement-geografik eksprement hisoblanadi. Bir video lavha olinadi. Boshlanishida kadrda aktrisa Xoxlova Petrovkadagi Mostorga yodgorligiga boradi. Boshqa kadrda artist Obolenskiy moskvadagi daryo yaqiniga boradi, yani suv bo'yiga boradi. Ular bu kadrlarda jilmayishadi va bir birlari bilan uchrashish uchun yo'lga tushishadi. Uchrashuv va qo'l berib so'rashish jarayoni Gogol yodgorligi orqa fonga berilgan vaqtda suratga olinadi. Bu yerda qahramonlar o'tirishadi va qayerlargadir qarab turishadi.



1.1.1-rasm. Geografik eksprement asosida suratga olish jarayoni.

Keyingi kadlarda esa orqa fonga kadrda Vashingtondagi Oq uy binosi qo'yiladi. Ular qayergadir qaragan holatda suhbatlashishadi. Keying kadrlar esa

xiyobonda olinadi va bu yerda ularning suhbatlari tugaydi va ular ketishadi. Va nihoyat ular ajralgan joy o'sha xiyobondagi zinlarda olinadi.



1.1.2-rasm. Geografik eksprementda suratga olish maydonining tanlanishi.

Videoni ko'rgan barcha tomoshabinlar "bu video Vashingtonda suratda olingan" deb o'ylashadi. Aktyorlar o'sha yerlarda yurishgan degan xayolga borishadi. Bu esa montajning ilk ko'rinishi hisoblangan. Bu yerda asosiysi kadrlarni to'g'ri va qayerda olinishini tanlay bilish hisoblanadi. Kadrlar ketma ketligi shunaqanki joylarda tasvirga olinishi kerakki bunda tomoshabinlar qayerda tasvirga olinayotganini bilishmasdan birinchi ko'rgan kadrda manzaralarni eslab qolishi va qolgan kadrlar ham xuddi shu yerda olinmoqda degan xulosa kelishlari kerak. Bunda rejissorning mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan videoda ko'rganimizdek aktyorlar har xil joylarda suratga olingani bilan tomoshabinlar bu kadrlar AQSH da olindi deb o'ylashdi. Suratga olish jarayonida harakatlar va tomoshabinlar nigohi ham hisobga olingan holda surat olinishi zarur bo'ladi. Bularning barchasida tomoshabinlar fondagi o'zgarishlarni sezmay qolishlari kerak.

Ikkinchi eksprement- bu mashhur Kuleshov effekti hisoblanadi. Bu effekt anchagina bahs va munozaralarga sababchi bo'lgan. Bu effect quyidagicha amalga oshiriladi. Katta planda aktyor Mozjuxina suratga olingan. Suratga olish jarayonida u qayergadir ko'z uzmasdan qarab turgani olingan. Va yana uchta turli kadrlar suratga olingan. Ular o'ynayotgan bola, tobut ustida turgan yosh qiz va bug'lanib turgan tarelkadagi ovqat. Mozjuxina plani 3 ta bo'laklarga ajratilgan va alohida-alohida qilib o'ynayotgan bola, tobut ustidagi qiz va bug'lanayotgan ovqat kadrlari bilan birlashtirilgan. Bu uchala alohida birlashtirilgan bo'laklar daslabki planda takrorlangan va bir vaqtning o'zida kichik do'stlar davrasi tashkil qilingan. Barcha baxslashganlar tayyor bo'lgan videvo lavhani ko'rishadi va unda birinchisida qahramon o'ynayotgan bolaga mexr bilan qarab turibdi, ikkinchisida tobut oldidagi qiz bilan birga motam tutmoqda, uchinchisida esa uning shunchaki qorni och va u ovqat hididan lazzatlanayotgani tasvirlangan. Bitta alohida kadr va katta plandagi kadr birgalikda boshqacha talqinga ega bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda ikkita turli xil kadrlar yordamida yangi birinchi va ikkinchisiga o'xshamagan kadr hosil qilinadi.

1920 yillarning boshlarida L. Kuleshovning "Kino san'ati" kitobi yozilgan va 1929 yilda esa bosilib chiqqan. Bu kitob o'z tarkibiga Kuleshovning o'z kino maktabida olib borgan izlanishlari va orttirgan tajribalari, eksprementlar tahlili, teatrdan qanday qilib yaxshi kino olish usullari, kinoaktyorlarga qo'yiladigan talablar, kadrlarni tanlash metodlari haqida yozilgan. Kuleshov o'z kitobida kadrqa "ieroglif" deb ta'rif bergan. U montajni kinodagi ijodiy fikrlashning asosi deb hisoblaydi. Materiallar yordamida kino xuddi haqiqiy hayotga o'xshaydi deydi. Uning o'zi esa bu materiallarga atrofdagi haqiqiy buyumlar va aktyor mahoratini kiritadi. Kuleshovning bu barcha g'oyalari kinematogroflarning asosiy manbasi hisoblanadi. Bu manbalarning barchasi ular uchun ma'lum va mashhur hisoblanadi. Undan keying kinematogroflarning deyarli barchasi uning maktabini tugatishgan. Bu mashhur kinematogroflardan V. Pudovkin, B. Barnet, L. Obolenskiy, A. Xoxlova, S. Kamarov, V. Fogellarni misol keltirish mumkin. Kuleshovning bu kitobida uning shogirdlari

shunday deb yozishgan “Biz tasvir tayyorlaymiz-Kuleshov esa kinematografiya qiladi”. Kuleshovning barcha eksprementlari ovozsiz filmlar uchun bo’lgan.

S. Eyzenshteyn ham Kuleshovning kino maktabida bir necha oy davomida tahsil olgan ammo u uning doimiy azosi bo’la olmagan. Chunki u ovozli kinematografiya tarafdorlaridan bo’lgan. U Kuleshovning fikri va g’oyalaridan yaxshigina xabardor bo’lgan. 1925 yil u o’zining “Bronenost Potemkin” asarini yozib tugatdi. U bu asarida kino sanatini sir asrorlarini yoritib berdi. Kuleshovdan keyin u ham kinodagi juda yuqori darajadagi montaj haqida izlanishlar olib bordi. U ham xuddi Kuleshov singari montajga “ieroglif” sifatida qaradi. U o’z asarida “Montaj- kino mazmunini bevosita yetkazib berish san’ati” deb yozadi o’sha vaqtlarda Eyzenshteyn. U kuleshovdan ham o’tib ketishga harakat qiladi ammo boshi berk ko’chaga kirib qolganini sezadi. Uning teorialari kinoni aqliy mahsulot ekanligini ta’kidlaydi.

O’sha vaqtlarda kadrlarni montaj qilish, film yaratish va ijod qilish asri oxiriga yetib qolgandi. Bu asrda montaj paydo bo’ldi va unga qat’iy ta’riflar berildi.

Ovozli kinematografiyaning kirib kelishi esa ovozsiz kinodagi montajning rolini butunlay o’zgartirib yubordi. Ekraning yangi xususiyatlari va aqlga sig’dirib bo’maydigan darajadagi uzun kadrlarni suratga olish texnologiyasi kinematografiyaga juda kata imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu esa montaj qilinishini inkor etilishiga sabab bo’ldi.

1939 yilda uning “Montaj 1938” deb nomlangan maqolasi bosilib chiqdi. Bu moqolada u montajning mazmunini ochib berishga harakat qildi. Lekin o’sha davrda ovozli kinematografiya rivojlangani sababli “montajga hojat yo’q” degan tushuncha ilgari surilayotgan edi.

Keyinchalik kinematograflar ovozli kino bir necha xususiyatlari bilan eng yaxshi montajsiz film hisoblanishini ammo montaj qilish kinolarni bir biriga qiyoslashdagi ularning yuqori sifatini belgilovchi vosita ekanligini tushunib yetishdi. Bu vositani 1917 yilda Kuleshov yaratib ketgan edi. Lekin shu bilan birga bir necha javobsiz savollar ham qolib ketayotgan edi.



1.1.3-rasm. Kuleshov effektidan foydalanish.

Bular kino materiallarini nimalar tashkil qilishi kerak? Kadr ichini qanday montaj qilish kerak? Kabi savollar paydo bo'lgan.

Eyzenshteynning nazariyasiga to'xtaladigan bo'lsak kadr ichi bir necha qoidalar asosida montaj qilish kerak. Bunda kadr chizig'i va kadrning yassiligi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari har xil ranglar va ob'yektlar soyalari ham kirtadi. Uning ta'kidlashicha kadr-montajning bir yacheykasi. Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi yacheyka nima o'zi?

1982 yilda Yanupolskiy o'zining "Ommaviy va montajli kino" maqolasida kin ova montaj haqidagi qarashlarni yanada kuchaytiradi. U montajga kinoning formasini

o'zgartiruvchi bir jarayon sifatida qaraydi va filmdagi barcha elementlarni aktyor mahorati bilan bog'laydi. Aktyor harakatlarini filmda qay darajada joziba kasb etishi montajga bog'liq ekanligini takidlaydi va montaj orqali tomoshabinlar va kuzatuvchilarning filmga nisbatan munosabatini o'zgartirish mumkin degan fikrni ilgari suradi.

10 yillardan keyin 1992 yil Freylix o'zining “ Kino nazariyasi” asarida u 60 yil oldingi montajga nisbatan qarashlarga qaytadi va unga qaytadan ta'riflar bera boshlaydi. U Eyzenshteynning ishlari ustidan kuzatishlar olib boradi va “Eyzenshteyn g'oyalarini osmondan olmaydi u ularnu o'zi yaratadi va albatta to'g'ri yaratadi” deydi. “Kadr montaj elementi emas kadr montaj yacheykasi” deya Eyzenshteynning fikrini ma'qullaydi. “Kadr va montaj ular har xil narsalar emas kadr montajning bir xususiyati va montaj kadrning bir xususiyati” deya ularni bir biriga bog'laydi. Va yana qarashlar kadr va montaj borasiga buriladi. Bu yerda ham o'sha savolga to'xtalamiz “Yacheyka nima o'zi va u nimalardan tashkil topgan?” Bu savolga javob topish uchun yana 1929 yilga qaytamiz. Kuleshovga to'talamiz uning eksprementlari, eksprementlarining natijalari, uning eksprementlariga analitiklarning qanday munosabatda bo'lganiga bizga ma'lum. Yacheyka shunday narsaki unga tomoshabinlarning nigohi qadaladi yacheykaga kiritilgan o'zgartirish kinoning o'zgarishiga olib keladi. Albatta Kuleshov o'z eksprementlari bilan montaj qonuniyati emas balki kino qonuniyatini ochib berdi. U na bu kino kadrlarida va na kadrlar ichidagi elementlarda insonning qarashlari qandayligi, insonning idrok qilish jarayoni qanday kechishi, inson qabul qilgan ma'lumotlari asosida qanday xulosaga kelishi va o'z ko'zi bilan ko'rgan narsalarni qanday tushinishi haqida ma'lumotlar bergan. Inson atrofni kuzatishi va ekrandagi narsalarni tomosha qilishi bilan qanday malumotlarga ega bo'lishida kino kadrlari va kadr ichidagi elementlar hech qanday ro'l o'ynamaydi. Kino faqat inson idroki va fikrlarini moslashtirish va to'g'irlashga qodir xolos.

Asosiy fikr inson atrofidagi kuzatib turgan narsalaridan olayotgan malumotlarida hisoblanadi bunda u malumotlarni ekrandan shart emas inson atrofni kuzatar ekan alohida alohida ma'lumotlar o'rtasidagi alaqodorlikni qidiradi, ko'rgan

narsalarini ta'rifini izlaydi va atrofdagi narsa va voqealarni birma-bir xayolidan o'tkazib ularni eslab qoladi kino esa o'sha aloqadorlikni ko'rsatib berishga harakat qiladi.

1.2. Montaj jarayonining asosiy qoidalari.

Bir necha yillardan buyon kino va teleko'rsatuvlarni montaj qilish bir necha qonun qoidalari asosida amalga oshiriladi. Bu qoidalaridan bir nechatasi juda muhim sanaladi. Lekin ularga rioya qilinmasli oqibatida tomoshabinlar kuzatuvda buzilishlar va ekrandagi video mahsulotning buzilishiga olib keladi. Misol uchun kadrlarni montaj qilishda harakatlanayotgan personaj yoki biror buyumni toki harakat tugash joyiga qadar kutilib undan so'ng kesish amalga oshirilishi kerak. Ammo harakatni qaytish jarayonini ko'rsatish maqsadga muvofiq emas. Bu tomoshabinlarda bu harakatlar boshqacha taassurot qoldirishi mumkin. Xuddi shu qoida suratga olish jarayonida ham amal qilish kerak.

Shu bilan birga montaj dialogida yirik planda ikkita aktyor talab qilinadi. Agar ular alohida alohida suratga olinsa ularning nigohlari ro'parasidagi sherigiga yo'nalgan bo'lishi kerak yuzini ro'parasida esa bo'sh joy qoldirilishi kerak. Bu qoida "180 gradus qoidasi" deb nomlanadi. Agar bu qoidaga rioya qilinmasa unda tomoshabin mo'ljallanmaydi va ular suhbatida "uchinchi kishi ham bor" deb o'ylashadi. Suratga olingan videoni montaj qilishda ham mana shu "180 gradus qoidasi" amal qilgan holda amalga oshirilishi kerak. O'tishlarni qo'yilishida ham e'tibor qaratish kerak. Ular yirik planni buzib yubormasligi kerak. Montaj qilish vaqtida esa bir necha mo'ljallardan foydalanish kerak. Ular tomoshabinlarni nigohini o'zgarishiga yo'l qo'masligi uchun kerak bo'ladi. Agar mana shu qoidalarga rioya qilinmasa qo'rqmasdan "kadr montaj qilinmagan" deb aytish mumkin. Kadrlarni montaj qilishda analogli qoidalarga manzaraning nomoyon bo'lishi va kameraning harakati misol bo'ladi. Yana bir talab qilinadigan qoidalaridan biri suratga olingan videoning qismlaridan foydalanish va ularni montaj qilish jarayonida qatnashtirishdir. Misol uchun kadrda biror bir odam eshikdan kirayotgan bo'lsa, ikkinchi kadrda

albatta eshikning ikkinchi tomonida uning eshikdan chiqishi suratga olinishi kerak. Agar kesib ulash jarayonidan keyin odam eshikdan kirs va xonadagi stulda o'tirgani tasvirlansa va ichkari tomondan eshikdan kirgani tasvirga olinmasa bu montajning buzilishiga olib keladi. Bu xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun montajyor va suratga oluvchi operatorga katta mas'uliyat yuklanadi. Kinoxronika va televideniyada bu kabi xatolarga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan muhim qoidalarga amal qilish rejissor senariysi asosida suratga olinishi rejalashtirilgan vaqtdan oldin sinchiklab o'rganib chiqilishi lozim. Suratga olish jarayoni boshlangandan so'ng yagona umid operatoridan bo'ladi. U bu qoidalarga qat'iy amal qilagan holda suratga olishi kerak bo'ladi. Bu montaj qoidalarinig buzilishiga alternative kinosan'ati maktablarida yo'l qo'yilishi mumkin ammo bu yerda ham tasvirlar ketma ketligiga rioya qilinishi talab qilinadi. Bu qoidalarga rioya qilinmagan kinolardan bittasi bu Stenli Kubrikning "Shu'la" filmidir. Bu kinoda "180 gradus qoidasi"ga bir necha marta amal qilinmagan va oqibatda kino muvafaqqiyatsizlikka uchragan.

Montajning ijodiy usullari.

Kinematografiyada montaj so'zini tushunish uchun fransuzcha *montage* so'ziga e'tibor qaratish lozim. Montaj fransuzcha *montage* so'zidan olingan bo'lib "yig'ish", "bog'lash" degan ma'nolarni beradi. Hozirgi kunda film montaji haqida 3ta asosiy qarshlar mavjud. Bular:

1. Fransuz kinematografiyasida ishlatilgan bo'lib montaj so'zining lug'aviy ma'nosiga asoslangan holda "filmni yig'ish" degan qarashdir.
2. Ikkinchi qarash 1920 yillarda sovet kinematografiyasida ishlatilgan bo'lib montajga kadrlarning qo'shilishi oqibatida yangi ma'no olish deya yondashishdir.
3. Gollivud kino ishlab chiqaruvchilarining qarashlari bo'lib unga ko'ra montaj "kino syujetini siqish" demakdir.

Sovet kinorejissori L. Kuleshov dunyoda birinchilardan bo'lib kinematografiyada montajni "ijodiy mahsulot" deb ta'rifladi. U buni o'zining

eksprementlarida isbotladi. U montajni boshqa san'at turlari ichida eng kuchlisi deb hisoblaydi.

Amerikalik rejissor D. Griffet Kuleshovga qadar kino san'atining yagona nazariyachisi edi. U parallel montaj nazariyasini yaratdi. Bu nazariya mohiyati shundan iboratki qachonki ikkita kishi turli xil joylarda tasvirlarni bir vaqtning o'zida o'zaro kelishgan holda montaj qilsa bu parallel montaj bo'ladi. U bu texnologiyani o'zining boshqalarnikiga o'xshamagan kino ishlab chiqarishida qo'lladi.

Intelektual montaj usuli esa Kuleshovning shogirdlaridan biri bo'lgan S. Eyzenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra montajning mazmuni dialiktik (materializm) asosga ega hisoblanadi. U bir biriga bog'liq bo'lmagan kadrlarni montaj qilishni yoqlab chiqmagan.

Sovetkinematografi V. Pudovkin ham montajni boshqa san'at turlari fotografiya, adabiyot, teatr va ovoz yozishlarga qaraganda kamdan kam uchraydigan va odat tusiga aylanayotgan san'at deb hisoblagan. Uning usulida montaj qilingan kadr mazmunini qisqartirish talab qilinadi. Uning o'zi dastlab uni bunaqa bo'lishini o'ylamagan.

S. Kubrik montajni boshqa kino ishlab chiqarishdagi jarayonlaridanada ko'proq yaxshi ko'rishini aytib o'tgan. U qolgan jarayonlarni esa montajga tayyorlovchi jarayon deb hisoblagan.

Kanadalik E. Dmitrik yaxshi rejissor har doim amal qilishi kerak bo'ladigan montajning 7 ta qoidasini yaratdi. Bu qoidalar quyidagicha:

1. Har qanday yopishtirish jarayoni ma'lum qoida asosida amalga oshirilishi kerak.
2. Agar kadrni qayerdan kesishni bilmasang unda ortiqcha joy qolidirib kesish kerak.
3. Suratga olish jarayonini iloji boricha harakat vaqtida tugatish kerak.
4. Montaj qilingandanda ko'ra ko'proq original albatta yaxshi.
5. Har bir sahna boshlanishi va tugallanishi bilan davom etishi kerak.
6. Agar kadrlar mos qilib suratga olingan bo'lsa yopishtirish jarayoni har doim yaxshi usul hisoblanadi.

7. Avval-tuzatish, ikkinchi o'rinda esa forma turadi.

Amerikalik ovoz rejissori U. Myorch kleylash joyining tanalnishini 6 ta belgisini aytib o'tgan. U bu belgilarni foizlarda ifodalagan. Ular foizlar kamayib borishi tartibida tartiblangan.

1. Emotsional (51%). Bu belgida yopishtirish auditoriyaga bog'liq bo'lib u rejissor holatiga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

2. Syujetli (23%). Yopishtirish orqali filmning syujeti ko'rsatiladi.

3. Retmli (10%). Bu belgi yopishtirish retm asosida qiziqarli va to'g'ri amalga oshirilishi kerak.

4. Nigoh yo'nalishi (7%). U xonadagi kuzatuvchilarning nigohi qadalishiga mos qilib yopishtirish kerakligini ko'rsatadi.

5. Ekran qalinligi (5%). Bu belgi "180 gradus qoidasi"ga javob beradi.

6. Harakat jarayoni (4%). Harakat fizik jihatdan talabga javob berishi kerak.

I bob bo'yicha xulosa.

Bu bobdan bizga shu narsalar ma'lum bo'ldiki kinosan'atining muvaffaqiyatli odimlari montaj usullarini takomillashuvi bilan boshlanadi. Bu kino vujudga kelgan dastlabki davrlarda kino xodimlariga ma'lum emas edi. Kino suratga olish kameralari kashfiyotchilari dastlab o'z uskunalarini qulay joyga o'rnatib olib ko'zlariga nima qiziqroq tuyulsa o'shalarni lentalariga muhrlayverganlar. Ular korxonalarga to'p-to'p bo'lib kirib ketayotgan ishchilar, yaqinlashib kelayotgan poezd, ovqatlanayotgan bolalar voqealarini birin-ketin suratga olaverganlar.

Dastlabki montajlar qo'lda yani suratga olish jarayoning o'zida amalga oshirilgan. Montaj jarayoning asoschilaridan biri sifatida biz rus kinorejissori L. Kuleshovni bemalol tilga olishimiz mumkin. U o'zining qimmatli eksprementlarida montaj jarayonini izohlab bergan. Undan keyin esa uning shogirdlari va boshqa yana bir qancha kinorejissorlar ham montaj jarayonining rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular o'z qarashlari asosida montaj qilish jarayonini takomillashishiga ulkan hissa qo'shganlar.

Bu kinorejissorlar nafaqat montaj tarixini balki bu jarayonda amal qilinishi kerak bo'lgan qonun qoidalar va chora tadbirlarni ham aytib o'tishgan. Agarda bu qoidalarga rioya qilinmasa montaj ko'ngildagidek bo'lmasligini, hattoki umuman amalga oshmasligini amalda isbotlab ham berishgan. Ularning bu xatti harakatlari esa montaj tarixi va jarayonining rivojlanishiga sabab bo'lgan.

II bob. VIDEO RESURSLARNI TAHRIRLASH TEXNOLOGIYASI.

2.1. Montaj tizimlari.

Montaj (fransuzcha *montage*) – televdeniyada yoki bir necha alohida alohida fragmentlarni birlashtirib yagona natija olinadigan ovoz yozish studiyalarda va kinematografiyada qo'llaniladigan ijodiy va texnik jarayon hisoblanadi. Mantaj kinematografiyaning eng kerakli qisimlaridan biri hisoblanadi. Unga kinematografiyaning tushunarli va aniq qilib aytib berish mumkin bo'lgan eng minimal vositasi sifatida qarash mumkin.

Kadrlararo montajdan tashqari kino va televidiniyada alohida-alohida mantaj kadrlarini birlashtirib umumiy ketma-ketlikda bajariladigan xuddi kadrlararo mantajga o'xshash kadrichi mantaji ham mavjud.

Kadrichi mantaji bir necha alohida mirankadrlar harakatidan iborat bitta mantaj qilingan kadrni komparitsion yaratishdir.

U kadr harakatining rejissor yoki operator tomonidan tashkil qilinishi natijasida yuzaga keladi. Hech qanday alohida texnologiya talab qilinmaydi. Unda kadrlararo mantaj kerak bo'ladi.

Mantaj texnologiyasi.

Kinematografiyaning rivojlanish davrida televideniya va radiodagi mantaj texnologiyasi o'zgarib turuvchi bir soha sifatida takomillashib bordi. Ilgari kinoda ishlatilgan mexanik mantajning o'rniga hozirgi kunda asosiy o'rinda elektron mantajdan foydalinilmoqda.

Kinematografiyaning rivojlanish davrida televideniya va radiodagi mantaj texnologiyasi o'zgarib turuvchi bir soha sifatida takomillashib bordi, ilgari kinoda ishlatilgan mexanik mantajning o'rniga hozirgi kunda asosiy o'rinda mantajning bir qancha texnologiyalari ishlab chiqilgan va ulardan unumli foydalinilmoqda. Boshqa turdagi mantaj texnologiyalarining takomillashishi va televizorda ko'rsatiladigan kinomahulot qo'yilishining amalga oshirilishi bu texnologiyaning kinofilimlarda birinchi montoj sifatida ishlatilishiga sabab bo'ldi. Filmni tomosha qilish va montoj

materiallarini boshqarish kino lentalar orasidagi uzilishlarning yo'qligi va tasvirga olish jarayonlari orasidagi yo'qotishlarning yo'qligini ko'rsatdi.

Ilgari kinematografiyada montaj qilingan tayyor mahsulotga ega bo'lishning yagona yo'li kinoplyonkalarni kesib ularni fizik qayta ulash orqali mahsulot olish hisoblanadi. Shu tariqa montajning ikki xil usulda amalga oshirish texnologiyasi kelib chiqdi. Ular optik va magnitli fonogrammadir. Ularning ikkalasida ham kinoplyonka kesiladi kerakli o'ringa qo'yilib qayta yopishtiriladi.



2.2.1-rasm. Mexanik montaj stoli.

XXI asrning boshlariga qadar kino ishlab chiqarishda fizik montajning negative ko'rinishi bo'lgan optik texnologiyadan foydalanilgan. Bu davrda postanovkachi rejissor yoki montajyor ko'rsatmasi bilan negative tasvir va fonogrammlar bo'laklarga ajratiladi va yana biriktiriladi.

Professional kinematografiyada avval negative ko'rinishga mos keladigan pozitiv tasvir va fonogrammlar montaj qilinadi. Magnit fonogrammda xuddi uning nusxasini montaj qilish jarayoni qo'llaniladi. Bunday jarayon shikastlangan original nusxaning kamayishiga olib kelish imkoni beradi. Bunga qo'shimcha ravishda originaldan nusxa olib qo'yiladi. Barcha materiallarning muvoffaqiyatli nusxa olish jarayoni tugagandan keyin ishchi stolda pozitiv ko'rinishdagi kesilgan tasvirlar va

fonogrammlar kerakli o'ringa qo'yilib yopishtiriladi. Keyin bo'laklarga ajratilgan fonogrammlarning yopishtirish jarayoni yordamida yagona rolikka aylanadi. Rolik vaqti standart film vaqtiga moslashtiriladi.

Birlashtirilgan pozitivlar suratga oluvchi guruhlar tomonidan korib chiqiladi va eshitiladi. Shundan so'ng oxirgi montajga qayta ishlash uchun uzatiladi. Tuzatish jarayonida birlashtirib chiqilgan qism yana bir bor boshqa tartibda kesilib so'ngra qayta birlashtiriladi. Ikki lentali film tasdiqlangandan keyin alohida tasvir va fonogramm ko'zdan kechiriladi. Undan keyin montaj qilingan va pechatlangan futaj nomeriga mos keladigan tayyor bo'lgan negative mahsulotni kesish va birlashtirish amalga oshiriladi. Biriktirilgan negative montaj qilingan filmdan nusxa olinib yozib olinadi. Yozib bo'lingandan so'ng bir biriga mos interpozitiv dubl yozishga mo'ljallangan film yaratiladi. Suratga olish jarayoni vaqtida aylanayotgan kinolenta bevosita suratga olish jarayoni tugagunga qadar montaj qilinadi va original nusxa nomoyon bo'ladi. Umumiy biriktirilganlar ichidan faqat negativlari pozitiv bilan aloqada bo'lishi uchun bir necha marta kino nusxa olish apparati orqali o'tishga ruxsat etiladi. Bu esa qayta qayta nomoyish qilish uchun mo'ljallangan. Shuning uchun kino operatorlar shuningdek kino ishqibozlari televideniyadagi suratga plyonkalarni iloji boricha eng oxirgi montajni minimum darajada qilib bajarishlari kerak bo'ladi.



2.2.2-rasm. Mexanik montaj videomagnitafonlari.

Videomagnitafonlar paydo bo'lishi bilan texnologiya o'zgarmadi tasvirlarni ko'ndalang yozish faqat *mexanik montaj* yordamida amalga oshiriladi. Bunday yozishdan asosiy maqsad videoyozuv alohida yo'laklari ko'z ilg'amaydigan qilib kesilishi kerak va qayta yopishtirish ham xuddi shu tariqa amalga oshirilishi lozim. Bu esa videosignallarni sinxronizatsiyalanishini oldini oladi. Buning uchun magnit yo'lagiga maxsus kukun sepiladi va yopishtirish mikroskop yordamida amalga oshiriladi. Bu montaj usulining murakkab va qimmatliligi shundan iboratki montaj qilingan lentani uzoq vaqt saqlanmasligi va biriktirilgan joylarning uzoq muddatga bardosh berolmasligi hisoblanadi. Kesilga va biriktirilgan magnit videoyozuvning texnik qiyinchiligi esa tasvirga olish vaqtida kinoplyonkaning doimiy aylanib turishidir. Bu esa montaj tartibini va alohida alohida tasvirga olish vaqtining davomiyligining kamayishiga olib keladi. Ko'p kamerali tasvirga olish esa kerakli tasvir videomiksher yordamida tanlanib keyin yoziladi. Buning afzalligi shuki kesib birkirilgan nuqtalar sonining kamligi hisoblanadi.

Yangi bo'ylama yozish formati *elektr montaji* texnologiyasini paydo bo'lishiga sababchisi bo'ldi. Bunda magnit lentani kesish va yopishtirishga xojat qolmadi.

Elektron montajda bir necha kameralardan tasvir keladi va ularning orasidan kerakligi tanlanib tartiblanadi so'ngra magnit lentaga yoziladi. Bunda asosan ikkita buyruqdan foydalaniladi. Bular "davom etish" va " o'rnatish" . "Davom etish" buyrug'i qachonki master apparat dastlabki kadrni yozib bo'lib keyingisiga o'tganda beriladi. Ikkinchisi esa keraksiz tasvir to'xtatilib uning o'rniga keying kameradan kelayotgan tasvirni yozishda ishlatiladi. Elektron montajning texnik qiyinchiligi shundan iboratki tasvirga olish vaqtida videomagnitafon yuqori darajada sinxron ishlashi kerak bo'ladi. Video golovka barabani esa sinxron va bir xil fazada aylanib turishini ta'minlash kerak.

Televideya electron montoj tezda mexanik montoj o'rnini egalladi bunga sabab yo'laklarning va magnit lentani kesishning kam ekanligi sabab bo'ldi.

Elektron montajning takomillashishi va televizorda ko'rsatiladigan kinomahulot qo'yilishining amalga oshirilishi bu texnologiyaning kinofilimlarda birinchi montoj sifatida ishlatilishiga sabab bo'ldi. Filmni tomosha qilish va montoj materiallarini boshqarish kino lentalar orasidagi uzilishlarning yo'qligi va tasvirga olish jarayonlari orasidagi yo'qotishlarning yo'qligini ko'rsatdi. Keyinchalik birinchi electron montajga montaj qilishda pozitiv hattoki negative ham bir qatorda ishlatila boshlandi.

Subyektiv montaj- montajning yopishtirish texnologiyasi bo'lib, unda avval biror tomonga qarab turgan qahramon ko'rsatiladi, so'ngra qahramonning nigohi qayerga yoki nimaga qadalgani ko'rsatiladi. Qahramon qaragan plan nuqtai nazar deyiladi. Subyektiv montajda asosiy maqsad shuki qahramonning nuqtai nazari aniq va tushunarli qilib ko'rsatilishi kerak.

Zamonaviy terminalogiyada bir necha ma'nolarga ega bo'lgan "eyeline match" so'zi bor. Uning montajga bog'liq jihatini qaraydigan bo'lsak birinchi qayerlargadir qarayotgan qahramonni holatini ko'rsatadi. Bu esa aynan subyektiv montajga to'g'ri keladi. Unga ko'ra qahramonni qiziqtirayotgan yoki u qarayotgan ob'yekt yoki biror narsani ko'rsatamiz. Biz ko'rsatayotgan narsalar qahramonning nuqtai nazari bo'lmasligi mumkin. Bu yerda qo'lga kiritiladigan narsa shuki nigoh yo'nalishini ko'rsatadi va shu orqali film sytujeti kuchaytiriladi.



2.2.3-rasm. Subyektiv montaj.

Asosli montaj (axial cut)- agar kamera biz tasavvur qilgan chiziq bo'ylab bizdan ob'yektga yaqinlashsa yoki undan uzoqlashsa undagi kadr sakrashlarni yo'qotish usuli hisoblanadi. Uzilishlarni yoki siljishlarni sakrash vaqtini aniq topib uni to'g'rilashda asosli montajda illyuza hosil qilish orqali bunga erishiladi. Hozirda zamonaviy montajda bu montaj turidan kamdan kam foydalaniladi. Undan 1910-1920 yillarda keng foydalanilgan.

Asosli montajda krاندagi yoki aravachadagi kameralarni fizik jihatdan yaqinlashtirib, uzoqlashtirishga erishish mumkin. Kadrlardagi sakrashlar esa montaj orqali yo'q qilinadi. Agar ko'plab nojo'ya harakatlar bir necha dubllar natijasida olinsa va uni to'g'rilash imkoni mavjud bo'lmasa unda bu kadrlar o'chirilib yuboriladi. Obyektni suratga olishda bir necha kameralardan unumli foydalanish mumkin. Keyin bu kadrlar qo'shib chiqiladi va kerakli effektlar beriladi. Bunda kameralarni bitta nuqtaga qaratib qo'yish mumkin emas. Chunki suratga olishda ob'yekt bir nuqtada turmaydi. Shu sababli barcha kameralar turli nuqtalarga qaratib qo'yiladi va ularning har biridan kadrlar olinadi. Bu esa montaj uchun kerak bo'ladi. Ob'yektni yaqindan suratga olish uchun kamerani o'zini yaqinlashtirish maqsadga muvofiq emas undan ko'ra kamera ob'yektividan foydalanish kerak.



2.2.4-rasm. Asosli montaj.

2.2. Chiziqli va nochiziqli montaj.

Chiziqli va nochiziqli nmontajni tushunish faqatgina ularning elektron turigagina bog'liq.



2.3.1-rasm. Chiziqli montaj kontrolleri “SONY BVE-910”

Birinchi chiziqli montaj yangi montaj qiluvchi tomonidan montaj qilingan videolarni kerakli tartibda yozishda nomoyon bo'ladi. Bunda tayyor kadrda oldingi montaj qilingan kadrlarni o'tishi sekinlashadi. Bu jarayon ulangan joylar va har xil videokassetalarning almashtirishi hisobiga ro'y beradi. Davom etuvchi montaj kadri qayta yozish uchun oraliq vaqt davomiyligining bir xilligi talab qilinadi. Bu

texnologiya kerakli professional video ishlab chiqarishda kadrlararo montaj nuqtasini murakkablashtiradi. Magnitafon orqali boshqarish uchun montaj nuqtalarining aniq o'tishini ta'minlaydigan murakkab va qimmat kontroller ishlatiladi.

Magnit lentani aylantirish uchun kadr impulsini aniq vaqtda mexanizmlar sinxronlashishidan oldin yopishtirish amalga oshirilib oldindan tarqatiladi. Anchagina murakkab montaj hosil qilish uchun uchta magnitafonsiz amalga oshirib bo'lmaydigan pardalar va to'planagan kabi o'tishlar kerak bo'ladi. Bu uchta magnitafondan ikkitasiga video ma'lumotlar yig'iladi uchinchisida esa tayyor film yig'iladi. Yopishtirilgan fragmentlar har xil kassetalarda bo'lishi kerak va agarda birinchi yozish bitta lentada amalga oshirilgan bo'lsa ularni bittasidan nusxa olish kerak bo'ladi. Bunda tasvirga olish analog ko'rinishda bo'ladi. Analog tasvirda olishda sifat anchagina past bo'ladi. Bunaqanki ikkita o'tishda uchala videomagnitafon ham to'rtinchi magnitafon uchun ma'lumot manbai bo'lishi talab qilinadi. Bunaqanki qiyin apparatda sinxronizatsiyalash va boshqarish jarayoni sodir bo'lishini qiyinlashtiradi. Bu esa montaj jarayonining soddalashtirilishiga majbur qiladi. Bundan tashqari barcha tomosha qilingan filmlar hattoki alohida olingan kadrlar ham originaldan emas balki oraliqsiz nusxalashning o'zidan nusxa olinadi. Aynan mana shu jarayon elektr montajdagi analog ovoz yozishni kengaytirishga to'sqinlik qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa sezilarli darajada yo'qotilgan sifatda bu yaqqol tashlanadi. Tryukli murakkab montaj o'tishlarini hosil qilish uchun videoni ikki yoki to'rt marta qayta yozish talab qilinadi.

Televideniyada nohizizqli montaj komputerlar yordamida ayni vaqtda suratga olinayotgan raqamli videoni qayta ishlash imkoniyatini beradi. Bu texnologiya katta imkoniyatlarga ega ya'ni istalgan vaqtda va istalgan kadrni montaj qilish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari barcha videolar raqamli xotirada saqlanadi. Buning uchun barcha tayyor materiallar qattiq diskka yoki boshqa saqlovchi qurilmalarga yoziladi va montaj varog'i hosil qilinadi. Bulardan oxirgisi o'zi bilan komputer uchun faktli qo'llanma beradi. Bu qo'llanama tayyor filmning boshidan toki oxirigacha bo'lgan tayyor fragment va lahzalarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa montaj varog'iga muvofiq videoni o'qishni tashkillashtiradi. Bundan tashqari bu varoq har xil turdagi

murakkab, tartibsiz va uzoq vaqtli montaj o'tishlarining turlari va ovoz yo'llari sathining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni o'zida to'playdi. Komputer yordamida maxsus effektlar qo'shiladi, titr va yozuvlarni filmning istalgan nuqtasiga qo'yish mumkin. Bir vaqtning o'zida montaj varog'ining hosil qilinishi tasvirlarni rangini va tonini o'zgartirish imkonini beradi. O'qish jaroyini esa faqat tuzailgan filmlarni o'qishdan iborat.

Nochiziqli montaj maxsus komputer dasturlari yordamida amalga oshiriladi. Bu maxsus dasturlar umumiy holda videoredaktorlar deb nomlanadi. Nochiziqli montajning asosiy xususiyatlaridan biri qisqartirilgan yoki uzaytirilgan fragmentlardan iborat oxirgi montajni o'zgartirish uchun tayyor dastur yordamida keraksiz qayta yozuvlarni joylashtirishdan iborat. Bunda montaj varog'ini yetarlicha redaktorlash kerak bo'ladi. Montaj qilingan videoni o'qishning mazmuni shundan iboratki ko'p qirrali operativ yangi narsalarni ko'payishi montaj varog'ining hosil qilinishi bilan birdan amalga oshirilishi hisoblanadi. Bunda hosil bo'lgan yangi fayl komuterda qayta ishlangan va magnit lenta yoki optic videodisklarga yozilgan kerakli tayyor mahsulotning fragmentlarini birlashtirish vazifasini bajaradi. Unchalik kuchli bo'lmagan komputerde esa tayyor filmdagi bu fayl bir necha marta xrometraj qilinadi. Bu esa nochiziqli montajning chiziqli montaj texnologiyasiga aylanishiga sabab bo'ladi va o'z navbatida uyda ishlash imkoniyatini ham beradi.

Bu texnologiya faqatgina video ishlab chiqarishda emas balki kinematografiyada ham kerakli hisoblanadi. Hozirda eng oxirgi montaj kadrlari raqamli kameralarda suratga olingan skaner qilingan kinoplyonkalarga yoziladi. Bu kino lentalar Digital Intermediate deb nomlanadi. Montaj varog'i yaratilgandan keyin umumiy fayllar va roliklar komputer yordamida birlashtirladi. Bu xuddi jonli ko'rgandagidek bo'ladi. Hozirgi vaqtda bundayn imkoniyat faqat klassik optic texnologiyada mavjud. Bu ko'p qirrali turlashni buzib ko'rsatadigan va kino lentaga ziyon yetkazadigan mexanik vositalar to'planishini oldini oladi. Bu hattoki rangli korreksiyaga kata imkoniyatlar beradi va maxsus effektlar yaratadi. Klassik chiziqli montaj ilgari yangiliklar dasturi uchun qulay sanalgan. Bunga sabab magnit lentaga kata mablag' sarflanmasligidir. Nochiziqli montaj uchun esa bu talab qilinar edi.

2.3. Adobe Premiere Pro dasturida videolavha tayyorlash texnologiyasi.

Bugungi kunda yaratilayotgan video va audio fayllarni montaj qilish uchun yuzdan ortiq dasturiy ta'minotlar mavjud. Videofilmlarni yaratish murakkab bir jarayon bo'lsa, ularni montaj qilish undanda katta mehnat talab qiladi. Yaratilgan videofayllar hajmi boshlang'ich jarayonda oshib ketadi va uni keraksiz qismi qirqib tashlanadi va montaj qilinadi. Videofilm va musiqali fayllarni montaj qilish uchun bir nechta dasturlar mavjud. Ulardan boshlovchilar uchun sodda bo'lgan Windows Movie Maker dasturini keltirish mumkin. Ko'p hollarda videofilmlarni montaj qilish studiyalarda amalga oshiriladi. Lekin, shunday dasturlar mavjudki ulardan mustaqil shaklda ham foydalanish va montaj qilish mumkin.

Aynan harakatni montaj orqali ulab yuborish plandan-planga sezdirmasdan "silliq" o'tish imkonini yaratadi.

Montajning asosiy o'ziga xos ta'sirini yodda tutish lozim. Eng avvalo, bu xususiyat uning ritmiklik xususiyatida o'z aksini topgan.

Montaj - bu ritm. Ammo kinofilmning ritmi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uni filmning asosiy mohiyati, senariysini amalga oshirilishi va rejissyorlik talqini bilan bog'liqligini belgilash zarur.

Harakatning uzluksizligini ta'minlash maqsadida kadrlar bilinmaydigan qilib yelimlanadi. Dunyoni kinematografik anglash, uning ekrandagi obrazi o'zgardi, lekin montaj tamoyili saqlanib qoladi.

Kam shartlilik bilan to'g'ridan-to'g'ri hikoya qilish, voqealikni bevosita aks ettirishga yo'naltirilgan neorealizimni kashf etilishi montajning roliga bo'lgan munosabatni birmuncha o'zgartirib yuborgandek bo'ldi. Ko'pchilik nazariyotchilar buni montajni rad etilishi sifatida qabul qiladilar. Kartinalarning montaj tuzilishida rang-barang uslublarning almashinib turishiga qaramasdan kadrlarni montaj qilishining o'nta yo'nalishi aniqq ko'zga tashlanadi. Filmni suratga olish va uzluksiz ravishda davom etadigan bir sahna ichida qo'shni kadrlarni o'zaro bog'lash chog'ida yuqrida aytilgan o'nta tamoyilga amal qilish zarur. Rejissyor ulangan qismlarni

bilinmaydigan bo'lishiga, harakatlar o'zaro uzviylashib ketishiga va sahnani tomoshabin oson idrok etishiga intilishi kerak bo'ladi. Shundagina rejissyor sahna mazmuni va mohiyatini tomoshabinga osonroq yetkazib bera oladi. «Yirik montaj» kadrlar montajiga tegishli o'nta usullarning birinchisi hisoblanadi. Bu usul asarning uzluksiz davom etadigan bir sahna ichida ketma-ket keluvchi qo'shni kadrlardagi u yoki bu ob'ektni suratga olishda yo'l qo'yiladigan va qo'yilmaydigan o'zgarishlarni belgilaydi. Ikkinchi o'rta plan va birinchi o'rta planlarda inson qanday idrok etilishini tassavur qilishi keltirilgan. U yaxshi yoki yomon ko'rinadimi? Kadrdan-kadrga o'tishni tomoshabin uchun bilinmaydigan qilish asosiy vazifa ekanligini unutmaslik kerak. Bunda ikkinchi o'rta plan umumiy plan bilan muvofiqlashuvini ko'rasiz.

Makonda mo'ljall bo'yicha ikki kadrni montaj qilish usuli o'ziga xos yo'lni ko'rsatadi. O'zaro bog'liq bo'lgan ikki ob'ektni suratga olish ularning o'zaro bog'lab turgan chiziqning bir tomonida amalga oshirilishi zarur.


Adobe Premiere Pro -bu Adobe Systems kompaniyasining mahsuloti hisoblanadi va chiziqsiz videomontaj qilish dasturidir. Dasturning birinchi versiyasi 21 avgust 2003 yilda Windows OT bazasida ishlab chiqilgan. Hozirda dasturning bir nechta versiyalari ishlab chiqilgan.

Adobe Premiere - videolarga ishlov berish va montaj qilishga mo'ljallangan professional dastur. Adobe Premiere Pro da Internet uchun raqamli videolar va kliplpr yaratish mumkin. Istalgan video formatdagi fayllarni ko'radi va o'zgartirib saqlay oladi. Microsoft Windows va Mac OS platformalariga tushadi. Dasturning 1-versiyasi 1991 yil da Mac OS ga uchun chiqarilgan. 1993 yildan boshlab Windows tizimlarini ham qo'llab-quvvatlay boshladi. 1997 yilda Adobe Premere 4.2 versiyasi yaratildi.

Adobe Creative Suite 5 paketiga biriktirlgan va u 64-bitli OT ga mo'ljallangan, to'rtinchi versiyasi 64-bitli va 32-bitli OT lar qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu Premiere Pro dasturi bilan BBC, The Tonight Show kompaniyalari ko'proq ishlaydi. Bu dastur yordamida taniqli kinofilmlar montaj qilingan.


Hozigi kunda video bilan professional ishlovchi Adobe Premiere 6.5 versiyasi hisoblanadi.

Premiere Pro bu 4K x 4K videoni sifatli redaktorlashni amalga oshiradi 32-bitli RGB va YUV rang bilan ishlaydi. Qisqacha Adobe Premiere Pro dasturi ishchi oynasi bilan tanishib chiqamiz.



2.4.1-rasm. Adobe Premiere Pro dasturi ishchi oynasi.

Adobe Premiere Pro dasturi 8 ta asosiy menyudan tashkil topgan. Bular: File, Edit, Clip, Sequence, Marker, Title, Window, Help.



2.4.2-rasm. Adobe Premiere Pro dasturida ish jarayoni.

II bob bo'yicha xulosa.

Kinematografiyaning rivojlanish davrida televideniya va radiodagi montaj texnologiyasi o'zgarib turuvchi bir soha sifatida takomillashib bordi, ilgari kinoda ishlatilgan mexanik montajning o'rniga hozirgi kunda asosiy o'rinda montajning bir qancha texnologiyalari ishlab chiqilgan va ulardan unumli foydalanilmoqda. Boshqa turdagi montaj texnologiyalarining takomillashishi va televizorda ko'rsatiladigan kinomahulot qo'yilishining amalga oshirilishi bu texnologiyaning kinofilimlarda birinchi montaj sifatida ishlatilishiga sabab bo'ldi. Filmni tomosha qilish va montaj materiallarini boshqarish kino lentalar orasidagi uzilishlarning yo'qligi va tasvirga olish jarayonlari orasidagi yo'qotishlarning yo'qligini ko'rsatdi.

Montajning bir necha turlari yaratildi. Bularga misol qilib chiziqli, nochiziqli, subyektiv, asosli, kadrichi, kadrlararo va hakazo. Bu montaj turlari esa o'z qulayliklari bilan kin ova videolavhalar yaratishda ulkan yutuqlarga erilishiga sababchi bo'lmoqda. Televideniya nochiziqli montaj kompyuterlar yordamida ayni vaqtda suratga olinayotgan raqamli videoni qayta ishlash imkoniyatini beradi. Bu texnologiya katta imkoniyatlarga ega ya'ni istalgan vaqtda va istalgan kadrni montaj qilish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari barcha videolar raqamli xotirada saqlaydi.

Bundan tashqari montaj qilishda ishlatiladigan maxsus dasturlar video mahsulotlarni tahrirlashda minim ahamiyat kasb etadi. Bu dasturlar ichida Adobe Premiere Pro dasturiga esa alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Adobe Premiere Pro Adobe Systems kompaniyasining mahsuloti hisoblanadi va nochiziqli videomontaj qilish dasturidir. Dasturning birinchi versiyasi 21 avgust 2003 yilda Windows OT bazasida ishlab chiqilgan. Hozirda kunda dasturning bir nechta versiyalari ishlab chiqilgan.

III bob. “SUV HAYOT MAN’BAI” MAVZUSIDA VIDEO LAVHA YARATISH.

3.1. Foydalanilgan texnik uskuna va qurilmalar.

Bu videolavhani tayyorlashda ishlatilgan texnik qurilmalar Canon Vixia HF 100 videokamerasi, shtativ va obyektivlardan iborat. Men bu videokamerani tanlashimasosiy maqsad u videohavaskorlar qo'llashi uvhun juda qulay hisoblanadi. Uni istalgan joydga olib borib suratga olish ikoniyati mavjud.

Canon Vixia HF 100 videokamerasi.



3.2.1-rasm. Canon Vixia HF 100 videokamerasi

Canon Vixia HF 100 videokamerasi Canon korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan HD formatli videokamera hisoblanadi. Bu kameraning taqdimoti 2008 yil yanvar oyida bo'lib o'tdi sotuvga esa shu yilning aprel oyidan chiqa boshladi. Bu kamera yuqori sifatli bo'lgan AVCHD formatida videoyozuvlarni tasvirga oladi, saqlashda esa Secure Digital High Capacity formatda saqlaydi. Bu kamera 4 xil rejimda tasvirga olish imkoniyatiga ega:

1. FXP rejimi 1920 x 1080 hajmda, tezligi esa 17 Mbit/s
2. XP+ rejimi 1440 x 1080 hajmda, tezligi esa 12 Mbit/s
3. SP rejimi 1440 x 1080 hajmda, tezligi esa 7 Mbit/s
4. LP rejimi 1440 x 1080 hajmda, tezligi esa 5 Mbit/s

Xotirasi esa SDHC kartali bo'lib 16 Gb hajmga ega. U FXP rejimida 2 soatgacha bo'lgan tasvirlarni saqlay oladi. Fayl o'lchami va kattali kartaning hajmiga qarab cheklangan.

Bundan tashqari u 1080p 25(30) FPS, 1080i 50(60)FPS rejimlarda ham suratga ola oladi. Bu kameraning kamchiligi shundaki suratga olish vaqtida qo'lda fokus berish imkoniyati yo'q.

Uning xarakteristikasiga to'xtaladigan bo'lsak:

- Obyektivi: 1/3.2-inch 3.2 Megapixel CMOS
- Fitr hajmi: 37 mm
- Optic yaqinlashtirishi: 12x
- Optic stabilizatorga ega
- Fotokamera o'rnida ham foydalansa bo'ladi.
- Suratning maksimal hajmi 2048x1536
- LCD ekranga ega. Kattaligi 2.7 dyum.
- SDHC kartaga saqlaydi.
- O'g'irligi 380 gr.

Shtativ.



3.2.2-rasm. Suratga olishda ishlatiladigan shtativ.

Shtativ nemischa *Stativ* so'zidan olingan bo'lib uch oyoq degan ma'noni beradi. U aniq mo'ljal asosida ishlaydigan shuningdek o'gir qurilmalarni ushlab turish uchun ishlatiladigan va harakatlantirish imkoniyatini beradigan maxsus qurilma hisoblanadi. Shtativdan hozirgi kunda suratga olish jarayonida kameralardagi qimirlashlarni yo'qotish uchun kinematografiya, televideniya va fotografikada keng foydalaniladi. Umuman olgan obyektiv qurilmalar foydalaniladigan barcha sohalarda keng foydalaniladi. Television studiyalarda va kinosyomkalarda ishlatiladigan shtativlar Pedestal deb ataladi. U ikki qismdan iborat. Birinchisi gidravlik nasosga ega bo'lgan oyoqlar, ikkinchisi yuqori qismida joylashgan 360 gradusga aylanadigan golovka. Bu golovka kamerani hamma tomonga bitta yo'nalishda aylanishini

ta'minlab beradi. Yengil telezion shtativlarda qo'shimcha ravishda g'ildiraklar bo'lishi mumkin.

Shtativlar klassifikatsiyasi.

Ogirlikni ko'tarish darajasiga ko'ra shtativlar.

Ular 3 xil bo'ladi: yengil, o'rta, og'ir shtativlar. Yengil shtativlar 10 kg gacha bo'lgan o'girlikdagi kamera, videokamera va optic qurilmalarni ko'tarishga mo'ljallangan. O'rta shtativlar 10 kg dan 40 kg gacha bo'lgan qurilmalarni ko'tarishga mo'ljallangan. Og'ir shtativlar esa studiyalarda ishlatilishga moslashgan bo'lib ular 200 kg gacha bo'lgan og'irlikdagi videokameralarni ko'tarishga mo'ljallangan.

Oyoqlarining materiallariga ko'ra shtativlar.

Shtativning qanday ekanligi uning oyoqlari ishlangan materialga bog'liq. Bu materiallarning ichida eng qulayi va keng tarqalgani yog'och hisoblanadi. Shtativning qolgan qismlari esa po'lat yoki jez dan yasaladi. Ular oyoqlarga karkas yoki oshiq moshiq yordamida biriktiriladi. 1980 yilga kelib shtativlarning oyoqlari qimmat yog'ochdan tayyorlana boshlagan. Shtativning oyoqlari uning narxini ham belgilaydi.

Oyoqlarining ochilib yig'ilishiga ko'ra.

- Eksmarkazli qisqich. O'gir vaznli kameralarni ko'tarishga mo'ljallangan hozirgi kunda eng ko'p foydalaniladigan qisqich. U metall dan yasaladi va bolt yordamida boshqariladi.

- Boltli qisqich. Unda oyoqlarining yig'iladigan joyida boltlar ishlatiladi. Bunday shtativlar unchalik mustahkam bo'lmaydi va shu sababli yengil videokameralarni ko'tarishda undan unumli foydalaniladi.

Obyektiv.



3.2.3-rasm. Canon Vixia HF 100 videokamerasida ishlatiladigan obyektiv.


Obyektiv optik qismlardan tashkil topgan kuzatilayotgan yoki suratga olinayotgan tasvirni xususiyatlarini ochib berish uchun ishlatiladigan, ularni yaqindan yoki uzoqdan kuzatish yoki suratga olish imkoniyatini beradigan optik sistema hisoblanadi. Obyektiv bir necha linzalardan tashkil topgan maxsus qurilma hisoblanadi. Odatda obyektiv linzalardan tashkil topadi lekin uning oynalardan tashkil topgan turlari ham mavjud.

Obyektiv barcha kuzatuv va suratga oluvchi qurilmalarda ishlatiladi. Misol uchun fotoapparatda, kinokamerada, videokamerada, mikroskopda, teleskop va hokozalarda.

Obyektiv nafaqat linzalardan balki tasvir sifati yaxshi chiqishi uchun bir qancha qurilmalardan tashkil topadi. Bularga tasvirdan qaytayotgan ranglarni to'g'rilash vazifasini bajaradigan diafragma, fokuslovchi sistema, fotografik zatvor va tashqi va ichki blendlar.


3.1. “Suv hayot man’bai” mavzusidagi videolavhani montaj qilish.

Adobe Premiere Pro dasturining ishchi oynasini ochib olamiz. Bunda dastavval uni ochib olish avvalida dastur o’zi avtomatik tarzda yabgi Squiense yoki Projekt olib olish kerakligini so’raydi. Biz o’z xoxishimizga qarab ishimizni yangi boshlanishi yoki davom etishiga qarab ulardan birini tanlaymiz.




3.1.1-rasm. Adobe Premiere Pro dasturi ishchi oynasi.

Biz yaratmoqchi bo’lgan videolavha uchun kerakli video tasvirlarni dasturga yuklab olishimiz zarur bo’ladi. Buning uchun albatta Project menyusidan foydalanamiz va import buyrug’idan foudalanamiz. Shundan so’ng kerakli fayllarni yuklab olamiz. Ularni birinchi oyna orqali ko’rib chiqishimiz mumkin. Lekin undan foydalanib kerakli videolavhani yaratish uchun montaj yo’lagigga kerakli fayllarni tashlab olamiz. Ular ikkinchi oynada nomoyon bo’ladi. Montaj yo’lagi ikki qismdan iborat bo’lib birinchi qism video uchun ajratilgan unda esa birnechta yo’laklar mavjud. Ikkinchi qismi esa ovoz uchun bo’lib unda bir necha yo’lakchalar mavjud. Bu yo’lakchalar montaj jarayonida bizga ancha kerak bo’ladi.



3.1.2-rasm. Dasturga fayllarni yuklab olish jarayoni.


Undan keying qadam fayllarni kerakli o'ringa qilib joylashtirib chiqishdan iborat. Bunda ularni nafaqat joylashtiramiz balki keraksiz qismlarini kesib tashlaymiz. Buni **Razor Tool** buyrug'i orqali amalga oshiramiz. Bu instrumentni belgilangan sohadan topamiz.



3.1.3-rasm. Fayllarni joylashtirish.


Fayllarni joylashtirish davomida effect yoki biror joyini o'zgartirishga to'g'ri kelib qolsa shu fayl ustiga sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosamiz va

effektlar menyusi ochiladi. Bu effektlar faqat o'sha kadr uchungina ekanligini unutmashimiz lozim.




3.1.4-rasm. Kadr holatini o'zgartirish.

Kadrlarni kerakli ketma ketlikda taxlab chiqamiz. Effect berish jarayoni unchalik murakkab emas bunga sabab bu effektlar faqatgina bitta kadrda tegishli bo'lganligi uchun. Bu effektlar orqali biz kadrni xiralashtirishimiz, yaqinlashtirib uzoqlashtirishimiz yoki bo'lmasam ma'lum burchakka burishimiz mumkin xolos.




3.1.5-rasm. Kadrlarga ishlov berish.

Yuqoridagishlarni bajarib bo'gach to'liq videolavhani ko'rib chiqamiz albatta nimalardir yetishmaydi. Bu kadrlar tutashgan joylardir. Yani orqa fonlari har xil bo'lgan kadrlar ketma ket kelganda ulardagi kamchiliklar bilinadi. Shunda biz perexodlardan foydalanamiz. Ularni esa belgilangan sohadan topamiz.




3.1.6-rasm. Perexodlar berish.

Video tayyor holga kelgandan so'ng yana bir kata muammo bor. Bu video uchun orqa fonda musiqa berishdir. Musiqani yuklab olish uchun ham xuddi avvalgidek uni **Import** buyrig'i orqali yuklab olamiz. Kerakli musiqani tanlagach **Ok** tugmasini bosamiz musiqa bizning proyektlarimiz ichida paydo bo'ladi. Shu o'rinda bir narsa aytib o'tish joizki fayllar ko'p yuklangan taqdirda va ko'plab effektlar berilgan taqdirda dastur qotishi kuzatiladi. Buni yo'q qilish uchun esa **Enter** tugmasini bosish kifoya. Shu orqali dastur kerakli fayllarni va ishlatilgan effektlarni **Render** qilib ularni yanada yaxshi ishlashi uchun imkon yaratadi. Bu ishdan keyin dastur ravon ishlay boshlaydi.




3.1.7-rasm. Ovozli fayllardan foydalanish.

Ovozli fayllarni yuklab olgach ularni montaj yo'lagiga tashlaymiz. Ularning ikki xil turi mavjud bo'ladi agar faqat musiqa bo'lsa unda yaxshi agar biror bir videodan ovozni ajratib olish kerak bo'lsa yana qo'shimcha bir necha ishlarni amalga oshirishimizga to'g'ri keladi.




3.1.8-rasm. Audio fayllardan foydalanish.

Audio fayllarni olishimiz bir qatorda yuqorida aytib o'tganimdek agar u video fayldan ajratib olinishi kerak bo'lsa unda olib tashlanishi kerak bolgan kadr ustiga sichqonchani o'ng tugmasini bosamiz va u yerdan **Unlink** buyrug'ini tanlaymiz. Bu buyruq bizga video fayldan audio faylni ajratish imkonini beradi.




3.1.9-rasm. Unlink buyrug'idan foydalanish.

Yuqoridagi buyruqdan foydalangan holda videodan musiqani ajratib olamiz va videoni o'chirib tashlaymiz. Shundan so'ng bizda faqat musiqaning o'zi qoladi. Unga ham qayta ishlov beramiz yani ovozini pasaytirish, bass kabi ishlarni bajarimiz. Buning uchun uning ustiga sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosish kifoya.




3.1.10-rasm. Musiqani joylashtirish.

Musiqaga effect berish jarayonida birinchi oynada uning chastota ko'rinishi nomoyan bo'ladi. Biz uni eshitib ko'rib keraksiz nuqtalarini kesib tashlaymiz. Buning uchun esa avvalgidek **Razor Tool** instrumentidan unumli foydalanamiz.




3.1.11-rasm. Musiqaga effect berish.

Musiqaga effekt berishda effektlar buyrugini tanlaymiz va u yerdan **Level** buyrug'iga o'zgartirish kiritamiz. U biz yuklagan musiqa ovozi pasaytiradi va shu orqali biz undan orqa fondagi musiqa sifatida foydalanishimiz mumkin.




3.1.12-rasm. Musiqa ovozi pasaytirish.

Biz uchun yana bitta muammo qoldi bu ham bo'lsa kiritilgan kadrdagi keraksiz tovush yoki shovqinlardan xalos bo'lishdir. Va shu bilan birga videoning kerakli nuqtasida tabiiy tovushdan foydalanish. Biz bu videolavhada suvning shildirashidan foydalandik. Buning uchun keraksiz bo'lgan kadrdagi tovushlar Unlink buyrug'i orqali ajratib olinib o'chirib yuboriladi.




3.1.13-rasm. Ovozlarini qo'shib chiqish.

Bu amal ham bajarilgach musiqa tovushlarni keraklicha qilib joylashtiramiz. Kerak nuqtada ovozini pasaytiramiz kerak nuqtada esa aksincha.




3.1.14-rasm. Tovushlarni tartiblash.

Ko'p hollarda musiqa tovushi videolavha davomiyligiga yetmaydi shu sababdan musiqani uzaytirishga to'g'ri keladi. Lekin biz yaratgan videoda musiqa tovushi ortib qoldi. Shu sababdan uni ortiqcha qismi kesib tashlanadi.




3.1.15-rasm. Keraksiz fayllardan xalos bo'lish.

Musiqani tugallanish nuqtasini topamiz va uni belglab olamiz. Shu yerda uning ovozini sekin pasaytirib keyinchalik umuman o'chirib qo'yamiz.




3.1.16-rasm. Qayta tekshirish jarayoni.

Belgilangan qismni kesib tashlashdan osoni yo'q. Buni o'sha biz bilgan **Razor Tool** buyrug'i yordamida amalga oshiramiz. Shu bilan bir qatorda kadrlar tutash joylarga effektlar qo'yib chiqamiz. Bu esa videolavha sifati oshishiga yordam beradi.




3.1.17-rasm. Musiqani kesib tashlash.

Keying qiladigan ishimiz videoga bezak berishdan iborat. Ularning ichidan eng oddiysi bu Titul berish hisoblanadi. Titl berish uchun asosiy menyudan **Title** buyrug'ini tanlash kifoya.




3.1.18-rasm. Titl berish.

Title buyrug'ini bosishimiz bilan yangi oyna ochiladi. Unga biz yozadigan titlimiz ni yozamiz. Misol uchun o'z ismimizni.



3.1.19-rasm. Title oynasining ko'rinishi.

Kerakli titlimizni yozib bo'lgach unga o'zgartirish kiritamiz ya'ni yozuv usuli, qalinligi, burchak bo'yicha aylantirish va hakazo. Bunday effektlarning titl oynasining o'ng tomonidan toppish mumkin.




3.1.20-rasm. Yozuvni o'zgartirish.

Shundan so'ng uni projeklarga qo'shamiz va montaj yo'lagiga tashlaymiz. Kerakli nuqtaga joylashtiramiz va yana effektlar beramiz. Men bu montajda titlni faqat xiralshtirdim xolos.




3.1.21-rasm. Titlga effekt berish.

Titlni joylashtirgach videoni yana bir marta ko'rib chiqmiz va uni kamchiliklarini to'g'rilaymiz. Uning to'liq tayyorligiga ishonch hosil qilgach **Render** qilishga beramiz.




3.1.22-rasm. Tayyor mahsulotni Project ko'rinishi.

Mahsulotni render qilish uchun **File** menyusidan foydalanamiz. Undan **Export** buyrug'ini tanlaymiz. Keying qadam esa **Media** buyrug'ini tanlashdan iborat.




3.1.23-rasm. Mahsulotni Render qilish.

Mahsulotni nomini, formatini va saqlanadigan joyini korsatamiz. Buning uchun Render oynasining o'ng tomonidagi buyruqlardan foydalanamiz. Va **Export** buyrug'ini bosamiz.



3.1.24-rasm. Videomahsulot formatini o'zgartirish.

Buyruqni bosishimiz bilan Render jarayoni boshlanib ketadi. Bu unchalik ko'p vaqtni olmaydi. Render jarayoning tezligi montajda ishlatilgan effektlarga va kompyuterning xarakteristikalariga bog'liq.



3.1.25-rasm. Tayyor mahsulotni olish.

III bob bo'yicha xulosa.

Ushbu bobdan bizga ma'lum bo'ldiki hozirgi kunda televideniya da montaj qilishning bir necha zamonaviy texnik va texnologik uslub va vositalari ishlab chiqilgan ekan. Biz bular yordamida zamon talablariga javob beradigan teleko'rsatuvlar tayyorlashimiz mumkin. Bunda maxsus montaj dasturlaridan foydalanamiz. Bu bitiruv malakaviy ishida tayyorlagan video rolikni montaj qilishda Adobe Premiere Pro dasturidan foydalandik. Bu dasturning imkoniyatlaridan keng foydalandik. Hozirda bunday montaj dasturlarining bir necha turlari mavjud. Misol uchun: After Effects, Ulead video studio, Sony Vegas va boshqalar. Bu bobda men video rolikni tayyorlash jarayoni va uni tayyorlashda ishlatilgan texnik uskunalar kiritilgan. Bu texnik uskunalar yordamida sifatli raqamli montajsiz video olishga erishdik.

Adobe Premiere Pro dasturi yordamida videolarni birlashtirib, ularni montaj qildik. Foydalanilgan texnik qurilmalarning xarakteristikalarini o'rgandik va ular haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'ldik. Montaj qilish jarayonida esa o'z mahoratimiz va idealarimizdan foydalandik. Adobe Premiere - videolarga ishlov berish va montaj qilishga mo'ljallangan professional dastur. Adobe Premiere Pro da Internet uchun raqamli videolar va kliplar yaratish mumkin

IV bob. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.

4.1. Favqulotta vaziyatlar.

Favqulotta vaziyat (FV)-ma'lum hududda yuz bergan falokat, halokat va boshqa turdagi ofatlar natijasida kishilarning o'limiga, salomatligiga, tevarak atrofdagi tabiiy muhitga sezilarli moddiy zarar etkazuvchi, odamlarning turmush sharoitini buzilishiga olib keladigan holatdir.

Favqulotta vaziyatlar havfining tarqalish tezligiga ko'ra, ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. tasodifiy favqulotta vaziyatlar - er silkinishi, portlash, transport vositalardagi avariya va boshqalar;
2. shiddatli favqulotta vaziyatlar - yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;
3. mo'rtadil (o'rtacha) favqulotta vaziyatlar - suv toshqinlari, vulqonlarni otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariya va boshqalar;
4. ravon favqulotta vaziyatlar - sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'oqchilik, epidemiyalarni tarqalishi, tuproqni ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Favqulotta vaziyatlar yana tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda moddiy yo'qotishlar miqdoriga qarab) ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. **Lokal favqulotta vaziyat** - biror ob'ektga taaluqli bo'lib, uning miqyosi o'sha ob'ekt xududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq bqlmagan odam jabrlangan yoki 100 dan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bqlgan kunda eng kam oylik ish xaqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorni tashkil etgan hisoblanadi. Bunday favqulotta vaziyatlar oqibatlar shu ob'ekt kuchi va resurslari bilan tugatiladi.

2. **Mahalliy tavsifdagi favqulotta vaziyat** - aholi yashaydigan xudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan

ortiq, biroq 500 dan kam bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish xaqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 mln. baravaridan kam bo'lmagan miqdorni tashkil etgan hisoblanadi.

3. Respublika (milliy) tavsifdagi favqulotta vaziyat- favqulotta vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar FV paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish xaqi miqdorining 0,5 mln. baravaridan ortiqni tashkil etadigan, hamda FV mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin bo'lgan favqulotta vaziyatlar tushuniladi.

4. Transchegaraviy (global) tavsifdagi favqulotta vaziyat deyilganda esa, oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud FV chet elda yuz bergan va O'zbekiston xududiga daxldor holat tushuniladi.

Bunday falokat oqibatlari har bir mamlakatning ichki kuchlari va mablag'i bilan hamda xalqaro hamjamiyat tashkilotlari mablag'lari hisobiga tugatiladi. Masalan, Orol muammosi nafaqat O'zbekiston davlati uchun falokat keltiruvchi, balki unga chegaradosh bo'lgan Turkmaniston, Qozog'iston va boshqa davlatlar uchun ham falokatli vaziyatdir. Shuning uchun oxirgi vaqtda Orol muammosini hal qilishga O'zbekiston davlatini kuch va mablag'idan tashqari butun jahon hamjamiyati tashkilotlari (EKOSAN, YuNEP va boshqa.) mablag'lari, kuchlaridan foydalanilmoqda.

Favqulotta vaziyatlar tavsifiga ko'ra (sababi va kelib chiqish manbaiga ko'ra): tabiiy tusdagi favqulotta vaziyatlar, texnogen tusdagi favqulotta vaziyatlar, ekologik tusdagi favqulotta vaziyatlarga bo'linadi.

Tabiiy tusdagi favqulotta vaziyatlarga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, er qoqchishlari, tog' o'pirilishlar va boshqa xavfli geologik hodisalar;

2) gidrometeorologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor kqchkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometerologik hodisalar;

3) favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar: alohida xavfli infeksiyalar (o'lat, vabo, sarg'ayma, isitma), yuqumli kasalliklar, rikketsiyalar-epidemik toshmali terlama, Bril kasalligi, zoonoz infeksiyalar - Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar – SPID.

Texnogen tusdagi favqulotta vaziyatlarga 7 xil turdagi vaziyatlar kiradi:

1) transportlardagi avariylar va halokatlar - ekipaj a'zolari va yqlovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar;

2) kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar: tevarak-atrof tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan taqdirda, yo'l qo'yiladigan chegaraviy kontsentratsiyalardan ancha ortiq miqdorda sanitariya - himoya xududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashlar;

3) yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar: texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishlariga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish zaxiralarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar xududlarida ishlab chiqarish maromining va odamlar xayot faolitining buzilishiga olib keladigan yong'inlar va portlashlar;

4) energetika va kommunal tizimlardagi avariylar: sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli znergiya ta'minotisiz qolishiga

hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan GES, GRES, IES lardagi, tuman issiqlik markazlaridagi elektr tarmoqlaridagi bug‘qozon qurilmalaridagi, kompressor, gaz taqsimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya ta‘minoti ob‘ektlaridagi avariyaalar, yong‘inlar, aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatililiga xavf tug‘ilishiga olib keladigan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshoatlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal ob‘ektlardagi avariyaalar;

5) bino va inshoatlarning birdan qulab tushishi bilan bog‘liq avariyaalar: odamlar qlimi bilan bog‘liq bo‘lgan va zudlik bilan avariya qutqaruv o‘tkazilishini hamda zarar ko‘rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yqnalishdagi ob‘ektlar, shuningdek, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to‘satdan buzilishi, yong‘inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6) radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog‘liq avariyaalar:

7) gidrotexnik inshoatlardagi halokatlar va avariyaalar: suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog‘lardagi yo‘llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan xududlarda odamlar o‘limiga, sanoat va qishloq xo‘jaligi ob‘ektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

Ekologik tusdagi favqulotta vaziyatlar Ekologik tusdagi favqulotta vaziyatlar asosan 3 xil bo‘ladi:

1) quruqlik (tuproq, er osti)ning holati o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:

halokatli ko‘chkilar-foydali qazilmalarni qazish chog‘ida er ostiga ishlov berilishi va insoning boshqa faoliyati natijasida er yuzasining o‘pirilishi, siljishi; tuproq va er sanoati tufayli kelib chiqadigan toksikantlar bilan ifloslanishi, og‘ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida

odamlarning sog'lig'i uchun xavf soluvchi kontsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2) atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:

3) gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar; er yuzasi va er osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi

oqavalari; neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar mavjud chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan eksteremal yuqori darajada ifloslanishi; binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning emirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar miqdorining ortishi;

4.2. Atmosfera havosini changdan tozalash usullari.

Atmosferaning ifloslanishi deganda havoga begona birikmalarning qo'shilishi natijasiga uning fizik va kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi tushuniladi, atmosfera tabiiy va suniy yo'llar bilan ifloslanadi. Vulqonlar otilishi, chang to'zonlar, o'rmon va dashtlardagi yong'inlar o'simlik changlari mikroorganizmlar kosmik chang va boshqalar tabiiy ifloslanish manbalaridir. Suniy ifloslanish manbalariga energetika, sanoat korxonalari, transport, maishiy chiqindilar va boshqalar kiradi. Hozirgi kunda atmosferaning suniy ifloslanish darajasi oshib bormoqda .atmosfera mahalliy, regional va global ifloslanishi kuzatiladi. Agregat holatiga ko'ra atmosferani ifloslovchi birikmalarni to'rt guruhga bo'lish mumkin; qattiq, suyuq, gazsimon va aralash birikmalar, havoni ifloslovchi asosiy modda va birikmalarga aerozollar, qattiq zarrachalar, kurum, azot oksidlari, uglerod oksidlari, oltingugurt oksidlari, xlorftoruglevodorodlar, metal oksidlari va boshqalar kiradi, Atmosferaga o'n minglab tonna modda va birikmalar chiqarilgan bo'lib, ularning o'zaro birikib hosil qilgan aralashmalari to'la urganilmagan. Bunday nomalum birikmalarning tirik jonzotlarga shu jumladan inson sog'lig'iga tasiri aniq baholangan emas.

Havoning kuchli ifloslanishi bazi uy hayvonlarining nobud bo'lishiga olib keladi. Atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning inson organizmiga bevosita yoki bilvosita zararli tasir ko'rsatmaydigan miqdori ruxsat etilgan miqdor (REM) deb yuritiladi. Bunda zararli birikmalarning odam mehnat faoliyatiga va kayfiyatiga putur etkazmasligi nazarda tutiladi. Havo ifloslanishining muntazam REM dan yuqori bo'lishi aholi kasallanish darajasining keskin ortishiga olib keladi. Aholi yashash joylarida havoning ifloslanganlik darajasi va tasiri REM ko'rsatkichlari bo'yicha belgilanadi. Turli moddalarning tasir darajasiga qarab xilma-xil REM ko'rsatkichlari belgilangan. Masalan. Quyidagi REM ko'rsatkichlarini ajratish mumkin; is gazi-0,01 mg/m³; oltingugurt gazi-0,05 mg/m³; xlor-0,03mg/m³; fenol-0,01 mg/m³; formaldegid-0,003 mg/m³; qurum-0,05 mg/m³; va hokozo. REM ko'rsatkichlari turli davlatlarda farqlanishi mumkin. Hozirgi kungacha atmosfera havosidagi 600 ta kimyoviy moddaning REM lari ishlab chiqilgan, shuningdek 38 ta moddalaning birlashib ta'sir qilishi o'rganilgan bo'lib ular uchun me'yorlar belgilangan.

Atmosferaning 20-30 km oraligida joylashgan o'ziga xos himoya qobig'i-ozon (O₃) qatlamining siyraklashuvi ham dolzarb ekologik muammolardan hisoblanadi. Ozon qatlami insonlar va barcha jonzotlarni quyoshning ultrabinafsha nurlarini zararli ta'siridan himoya qiladi. Freon, Xlorftoruglevodorodlar, ozot oksidlari ta'sirida ozon parchalanadi. Yer yuzi qutublarida, ayrim hududlar va yirik shaharlar ustida ozon tuynuklari vujudga kelgan. Hozirgi kunda ozonning kamayib borishi bilan yuzaga kelayotgan ekologik oqibatlarining oldini olish uchun mahalliy mintaqaviy va umumjahon miqiyosida tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi 10-15 yil ichida kislotali yomgirlar ayrim davlatlarda haqiqiy ekologik falokatga aylanib qoldi. Har qanday qazilma yoqilg'i yondirilganda chiqindi gazlar tarkibida oltingugurt va ozot qo'sh oksidlari bo'ladi. Atmosferaga millionlab tonna chiqarilayotgan bu birikmalar yomgirni kislotaga aylantiradi. So'nggi yillarda AQSH, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda kislotali yomg'irlar ta'sirida katta maydondagi o'rmonlar quriy boshlagan. Bunday yomg'irlar hosildorlikni pasaytiradi, binolar, tarixiy

yodgorliklarni emiradi, inson sog'lig'iga zarar etkazadi. Kislotali yomg'irlarning uzoq masofaga ko'chishi natijasida turli davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Ushbu ekologik xatarni bartaraf qilish uchun mahalliy xalqaro miqyosida tadbirlar o'tkazilmoqda.

Sanoatda, transport vositalarini ishlatishda va qishloq xo'jaligida bajariladigan ishlarning deyarli hammasida chang hosil bo'lishi va ajralishi kuzatiladi. Umuman changlarning turlari ularning kelib chiqish manbalarini hisobga olib, ularni tabiiy va sun'iy changlarga bo'lib qaraladi.

Ma'lumki changlangan havo muhiti insoniyatni qadim zamonlardan beri ta'qib qilib kelgan.

Tabiiy changlar sirasiga tabiatda inson ta'sirisiz hosil bo'ladigan changlar kiritiladi. Bunday changlar shamol va qattiq bo'ronlar ta'sirida qum va tuproqning eroziyalangan qatlamlarining uchishi, o'simlik va hayvonot olamida paydo bo'ladigan changlar, vulqonlar otilishi, kosmosdan yer atmosferasi ta'siriga tushib qolgan meteoritlar va boshqa kosmik jismlarning yonib ketishidan hosil bo'ladigan changlar va boshqa hollarda hosil bo'ladigan changlarni kiritish mumkin. Tabiiy changlarning atmosfera muhitidagi miqdori tabiiy sharoitga, havoning holatiga, yilning, fasllariga va aniqlanayotgan zonaning qaysi mintaqaga joylashganligiga bog'liq. Masalan, atmosferadagi changning miqdori shimoliy tumanlarga nisbatan janubiy tumanlarda, o'rmon zonalariga qaraganda cho'l zonalarida, shuningdek, qish oylariga nisbatan yoz oylarida ko'proq bo'lishi ma'lum.

Aniqlanishicha har bir kubometr havo tarkibida katta shaharlar hududlarida 6000 arofiga (ba'zi bir manbalarda avtomobil vositalaridan ajralgan tutunlarni ham kiritib 30 000 tatibida keltiriladi) har xil kattalikdagi chang zarralari bo'lishi aniqlangan, dalalar va bog'larda bu miqdor o'n marta kamayadi, tog'li hududlarda esa undan ham kamroqchang zarralari bo'ladi.

Sun'iy changlar sanoat korxonalarida va qurilishlarda insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida hosil bo'ladigan changlar kiradi. Masalan, mashinasozlik sanoatida—cho'yan ishlab chiqaruvchi domna va marten pechlarida hamda bu sanoatning hamma quyuvchilik sexlarida issiqlik elektrostansiyalarida yoqilgan

ko'miming ma'lum qismi kul va tutun sifatida atmosferaga chiqarib yuboriladi, qurilish ishlarida yer qazish ishlari, portlatish ishlari, sement ishlab chiqarish, shuningdek, tog'lardan ma'danlarni qazib olish ishlari va boshqa ishlarda juda ko'p miqdorda chang ajraladiki, bu changlarni atrof-muhitga chiqarib yuborish tabiatga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sanoatning ba'zi bir tarmoqlarida, masalan, kimyo sanoatida shunday xavfli sanoat changlari ajraladiki, ularni tozalamasdan chiqarib yuborish fojiali holatlarni vujudga keltirgan bo'lar edi.

Changning kelib chiqishi bo'yicha organik, mineral va aralashma changlar deb belgilanadi. Changning zararli ta'sirining tavsifi asosan uning kimyoviy tarkibiga bog'liq.

Changning kattaligi (ya'ni dispers tarkibi) bo'yicha uch gruppaga bo'lib qaraladi: a) kattaligi 10 mkm dan katta bo'lgan changlar yirik changlar deb yuritiladi. Odatda bunday changlar o'z og'irhgi ta'sirida yerga qo'nadi; b) kattaligi 10 mkm dan 0,25 mkm gacha bo'lgan changlar. Bu changlarni mayda changlar yoki mikroskopik changlar deb yuritiladi. Ular yeiga ma'lum ijobiy sharoitlar bo'lganda, masalan, yomg'ir, qor va shabnam kabi yeiga yog'ilayotgan og'ir zarralarga ilashib qolgan holatlarda qo'nishi mumkin; d) kattaligi 0,25 mkm dan kichik bo'lgan changlar ultra mikroskopik changlar deb yuritiladi va bu changlar hech qachon yeiga qo'nmay Broun harakati qoidalariga bo'ysingan holda uchib yuradi.

Chang - qattiq zarralar demakdir, ularning dispers va komponent tarkibi uning (tabiiy yoki antropogen) kelib chiqishiga bog'liq. Ular tarkibiga mineral tuzlar, metall oksidlari va organik birikmalar kiradi. O'zbekiston hududida atmosferaga chang kelib tushishining yirik tabiiy manbalari – qoraqum, qizilqum va Orolqumning (Orol dengizining qurigan qismining) mustahkamlanmagan qumli tuproqlari va sho'rxok cho'llari hisoblanadi. Ochilib qolgan dengiz tubi Orolqum tuzli cho'lini tashkil qildi, bu erdan har yili katta miqdorda tuz va qum zarrali changlar shamol yordamida tarqaladi. Quruq to'zonlar massasi o'rtacha yiliga 500 dan 2702 kg/gacha o'zgaradi. Ushbu chang tarkibidagi sulfat tuzlari 25-48%, xlorid tuzlari – 18-30%, karbonat tuzlari – 10-20%gacha etadi. Chang-tuz ko'chishining asosiy hajmlari

sohilbo'yi polosasining 300km oralig'ida ro'y beradi. Janubiy Orolbo'yida tuproqqa tushadigan chang miqdori sug'oriladigan yerlarga qaraganda, o'n baravar ko'proqdir.

Changga qarshi kurash chora-tadbirlari

Chang kasalliklarining oldini olish maqsadida quyidagi chora- tadbirlar amalga oshiriladi

O'zbekiston Respublikasi mehnat qilish qonunlari Kodeksiga asosan, ishlab chiqarish changlarining ta'siri bo'lishi mumkin bo'lgan ishga kirishdan oldin tibbiyot ko'rigidan o'tkaziladi. O'pka sili va miring o'pkadan tashqaridagi turlari, yuqori nafas yo'llari va bronxlar kasalligi, yurak-tomir tizimining organik kasalliklari va boshqalar bilan og'rigan kishilarga qabul qilinmaydilar.

20 yoshgacha bo'lgan shaxslar changli ishlarga qo'yilmaydilar, chunki pnevmokonioz yoshlarda tezroq rivojlanadi kattalardagiga nisbatan og'irroq o'tadi.

Umuman sanoat korxonalari, xonalari va sexlari havo muhitidagi changlar bu zonalarda ishlayotganlar sog'ligiga xavf solmasligini ta'minlash maqsadida chang miqdorining yo'l qo'yiladigan oxirgi darajasi (YQOD) sanitar-gigienik me'yorlari belgilangan hujjatlar mavjud. Eng ko'p tarqalgan va xavfli changlarning YQOD i SN 245-71 va GOST 12.1.005-76 «Ishchi zonasining havosi. Umumiy vsanitariya-gigiena talablari» da keltirilgan. Eng zararli changlarga eng past miqdor belgilangan (4-jadval). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tarkibida 70% dan yuqori kremniy (II) oksidi bo'lgan changlar uchun YQOD 1 mg/m dan oshmasligi kerak. Kamroq zararli changlar uchun u kimyoviy tarkibiga qarab 2 dan 10 mg/m atrofida bo'ladi.

Sanitar-gigienik tadbirlar. Bunga xom ashyoni gigienik standartlash, havo holati ustidan nazorat qilib turish, zaharlarning ta'sir qilish xavfi oshgan sharoitlarda gigienik talablarga amal qilish (favqulodda holatlar, remont ishlari), binolarni rejalashtirish va pardoqlash yordamida zaharlanishlarni oldini olish, ishxosiy himoya yositalarini qo'llash, samarali shamollatish tizimlarini o'rnatish ishchilarga sanitariya jihatdan yo'riqnomalar berish kiradi.

GOST 12.1.007-76 xom ashyo, mahsulotlar, materiallar standartlari va texnik shartlariga zararli moddalarning zaharlilik ta'riflarini kiritishni talab qiladi bular

texnologik reglamentlarda ham bo'lishi kerak. Xom ashyo va tayyor materiallarni gigienik standartlash zaharlar ajralib chiqishiga va ularni ishchilarga ta'sir sabab bo'la oladigan xom ashyo va aralashmalar sog'liq uchun zararli ;bo'lgan moddalarning chiqarib tashlanishi yoki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdorini chegaralashdan iborat. Masalan, bosmaxona qotishmalaridan qo'rg'oshin, kislotalar va metallar sostavidan mishyakni (ularning o'zaro ta'siridan juda zaharli gaz arsin hosil bo'ladi) butunlay chiqarib tashlash misol bo'la oladi.

Ishlab chiqarish zaharlanishlariga qarshi kurashning yo'llaridan biri ish zonasidagi havo muhiti holati ustidan nazorat o'rnatish hisoblanadi. Standart bo'yicha xavflilikning 1-sinfi moddalari uchun nazorat zaharli moddalarning zichlik miqdorinigina faqat qayd qilib qo'ya qolmasdan, balki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegara miqdor (YQMBChM PDK) oshgan taqdirda zarur choralar ko'rish uchun tovush va yorug'lik signallarini ishga soladigan avtomatik yoqish asboblari bilan ta'minlangan holda uzluksiz bo'lishi kerak.

Xavflilikning 2-4 sinflaridagi moddalar muntazam ravishda reja asosida (mehnat sharoitlariga gigienik baho« berish, zaharli moddalar ajralishini aniqlash va ajralish sabablarini bartaraf qilish) va ayrim shoshilinch sharoitlarda kasbga doir zaharlanishlarning sabablarini ishchilardan so'rab suriitirib nazorat qilinad. GOST bo'yicha nazorat usullari va asboblarning sezuvchanligi YQMBChM (PDK) darajasidan 0,5 dan past bo'lmasligi, xatosi-esa aniqlanayotgan miqdordan 25% dan oshmasligi kerak. Zaharianish xavfi, odatda reja asosida ta'mirlash ishlarini o'tkazishda va favqulodda holatlarda ortadi. Bunday hollarda ish joylaridan zaharli moddalarni havo bilan haydash, yuvish, gabsizlantirish yo'li bilan tozalanishi lozim. Ishchining xavfli zonada, uskunalar va katta hajmdagi idishlar ichida bo'ladigan vaqtini chegaralash, maxsus kiyimlar kiyish, protivogaz va boshqa shahsiy muhofaza vositalaridan foydalanish,tishlarni to'g'i tashkil qilish, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ham muhim hisoblanadi.

Xulosa.

Hozirgi kunda televideniya uchun yaratilayotgan reklama yoki hujjatli videoroliklar yaratilish jarayoni ularni yaratishda ishlatiladigan texnik uskuna va texnologik jarayonlarning roli juda katta. Jumladan, zamonaviy texnikalarning va zamonaviy montaj dasturlari yordamida filmni yoki kichik hajmli videoroliklarni teledasturlarning salohiyati oshirishda o'z natijalarini berib kelayotganligini aytish kerak.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining yakunida qo'yilgan vazifalar bajarildi va quyidagi natijalarga erishildi:

- televideniyaning asosiy jarayonlaridan biri bo'lgan montaj va uning tarixi bilan atroflicha tanishtirildi;
- teleko'rsatuvlarni tayyorlash va ularni efirga uzatish tamoyillarini o'rgandik;
- montaj qilish jarayonida rioya qilinadigan qonun qoidalar va ko'rsatmalarni o'rgandik;
- montaj qilishda ishlatiladigan texnik uskuna va texnologik jarayonlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lindi;
- videorolikni ahamiyati va uning zamon talablariga javob berishi o'rganildi;
- montaj qilish jarayonining usullari ko'rib chiqildi;
- Adobe Premiere Pro videomontaj dasturining imkoniyatlari va vazifalari o'rganildi;
- Adobe Premiere Pro dasturini o'rganish bo'yicha videolavha yaratish tizimlarini o'rganish amalga oshirildi;
- Adobe Premiere Pro videomontaj dasturi yordamida videolavha yaratildi.

Bundan tashqari videolavha tayyorlashda qo'llaniladigan texnik uskuna zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va ulardan samarali foydalanish haqida tavsiyalar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., 2003 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 17 apreldagi PQ-1741-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
4. Sh.Ubaydullaev, A.Nabiev, M.Ziyaeva, M.Ortiqov, U.Yuldashev, O. Ortiqov «Начальная допризывная подготовка» O'quv qo'llanma. Tashkent 2007 y
5. A. Qudratov, T.G'aniev, O'. Yuldashev, G'.Yo. Yormatov, N. Xabibullaev, F.D Xudoev. «Hayot faoliyati xavfsizligi» maruzalar matni. Toshkent 2005 y
6. Yuldashev O.R., Sapaev Sh.M., va boshqalar «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. Toshkent 2010 y
7. T.V. Gitun, A.G Yeliseev va boshqalar «Экстремальная медицина» lug'at Moskva 2006 y
8. O.R. Yuldashev, O. T. Hasanova va boshqalar «Аварийно-спасательные работы» O'quv qo'llanma. Toshkent 2008 y.
9. O.R. Yuldashev, O. K. Abdurahmonov va boshqalar «Безопасность жизнедеятельности» O'quv qo'llanma. Toshkent 2009 y.
10. X.V Salimov. «Ekologiya» Ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati 718 Toshkent 2009 y.
11. D. Kiryanov "Adobe Premiere Pro". O'quv qo'llanma. 2005 y. Format: PDF. ISBN: 5-94157-420-7.
12. Reznikov F.N., Komyagin V.B. Shaxsiy komputerda videomontaj Adobe Premiere 6.x и Adobe After Effects 5.x. 2003 y.
13. Dmitriy Kiryanov, Yelena Kiryanova .O'quv qo'llanma Adobe Premiere Pro CS3. 2008 y.